


**ASQARALI SULAYMONOV
NE'MAT ABDULLAYEV**

TASVIRIY SAN'AT



Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- sinf
o'quvchilari uchun darslik

2-nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2007

T a q r i z c h i l a r : **S. Abdurasulov** — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi


Q. Mirahmedov — Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi

HO 33181
491

S — A $\frac{4903010000 - 4}{M352(04) - 2007}$ 2007

ISBN 978-9943-03-046-6

© A. Sulaymonov, N. Abdullayev,
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2007-y.




SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchilar! Maktab ta‘limining yettinchi yilini boshladingiz. Siz hozir shunday yoshdasizki, o‘z iste’dodingiz, mahoratingiz, bilimingiz bilan tengdoshlaringizni, ustozlaringizni, ota-onangizni va tanish-bilishlaringizni hayratlantirishni yoqtirasiz. Bu borada shu kungacha egallagan bilim va malakalaringizni ishga solasiz. Sizning yoshingizda ayrimlar o‘zining bo‘lajak kasbini aniqlab ulguradi va bu sohadagi bilimi bilan boshqalarda havas uyg‘otadi. Ba‘zilar sportda, ba‘zilar esa san‘atning biror bir sohasida o‘z iqtidorlarini namoyon eta boshlaydi. Lekin ko‘pchiligingizda tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqish birinchi sinfdagiga nisbatan susaygan. Sababi oddiy. Siz o‘zgalarni qoyil qoldiradigan darajada rasm ishlashni o‘rgana olmagan bo‘lishingiz mumkin. Keling, birgalashib o‘ylab ko‘raylik. Tasviriy san‘at darslari sizni faqat rasm chizishga o‘rgatmaydi-ku. Unda siz Vatan va uning millat madaniyati, san‘ati, tarixi, tarixiy buyuk siymolari bilan tanishasiz. Mashhur rassomlarning hayoti va ijodini o‘rganasiz. Ranglar haqidagi bilimlaringizni yanada boyitasiz. Tasviriy san‘at darslarida sizda kuzatuvchanlik va xotira takomillashib boradi. San‘atda, hayotda nima go‘zal, nima chiroyli ekanligini ajrata olish va undan estetik zavqlana bilish qobiliyatingiz rivojlanadi. San‘atdagi milliylik va umumbashariylikni puxtaroq bilib olasiz. Ko‘pchilik befarq qaraydigan san‘at oqimlarini to‘g‘ri talqin etish, umuman, san‘atni to‘g‘ri idrok etishni, amaliy, dizayn san‘atini, shuningdek, san‘atdagi mazmun, ramziylik va boshqa jihatlarni o‘rganasiz. Bularning barchasi badiiy-estetik saviyangizni oshiradi.

Ayrimlaringiz tasviriy san‘at bilan oshno bo‘lishga ulgurdingiz. Bilimingiz, egallagan malakangiz yanada takomillashishida tasviriy san‘at darslari, ustozingiz, ushbu kitob yordam beradi.

BIRINCHI CHORAK



1 - MAVZU


SAN'ATDA OQIM VA YO'NALISHLAR

Topshiriq. Jahon tasviriy san'atidagi oqim va yo'nalishlarni o'rganish.

Darsning mazmuni. San'atdagi oqim va yo'nalishlar haqida suhbat (impressionizm, puantilizm, postimpressionizm, fovizm, kubizm).

XIX asr o'rtalaridan jahon san'atida yangi oqim va yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Shunday oqimlardan dastlabkisi impressionizm edi. Impressionizm iborasining muomalaga kirishiga fransuz rassomi Klod Monening ko'rgazmaga qo'yilgan «Quyosh chiqishi oldidagi taassurot» nomli asari sabab bo'lgan edi (taassurot — fransuzcha impression). XIX asrning 70-yillarida paydo bo'lgan bu ibora san'at tarixida impressionizm oqimini ta'riflash uchun ishlatila boshlandi.

Bu oqimga kirgan rassomlar tevarak-atroflarida sodir bo'layotgan zamonaviy voqealarni — qahvaxona, xiyobonlardagi hayotni tasvirladilar, tabiatning o'zgaruvchan holati (erta, peshin, kech, nam havo, quruq havo, bulutli kun, quyoshli kun va h.k.) ni, shaharning jo'shqin va gavjum hayotidagi o'tkinchi lavhalarni aks ettirishda rang surtmalaridan erkin foydalandilar. Natijada, rang surtmalari kompozitsiyada borliq, uning buyumlari to'g'risida tasavvur beruvchi vositalardan biriga aylandi. Masalan, Klod Monening «Parijdagi opera ko'chasi» asariga e'tibor bering (1-rasm). Rassom shaharning gavjum ko'chalaridan birining ko'rinishini tasvirlagan. Unda rassom shahar ko'chalaridagi jo'shqin hayotni rang surtmalarida ishlaydi. Asarda biror bir buyum yoki odamning aniq tasvirini uchratmaymiz. Hamma narsa va odamlar rang surtmalari hamda ularning birikmasidan tashkil topgan. Mazkur rang surtmalari shahar ko'chasidagi jo'shqin hayot to'g'risida tasavvur berishga xizmat qiladi.



1-rasm. Klod Mone. Parijdagi opera ko'chasi.

Impressionistlar o'z asarlarida quyosh nuri, yangi maysa, tiniq suv go'zalligini mohirona tasvirladilar, gullarning muattar isi-yu olamning rangdorligini ifodalashga harakat qildilar. Rassomlardan Klod Mone, Kamil Pissarro, Alfred Sisley, Ogyust Renuar ushbu san'atning ajoyib namunalari yaratdilar (2-rasm).

Fransiyada paydo bo'lgan bu oqim tezda Yevropa, Amerika, Osiyo san'atiga ta'sir qildi. Jumladan, rangtasvir san'ati rivojida o'z ifodasini topdi. O'zbekistonlik rassomlar Lev Bure, Oganess Tatevosyan, Pavel Benkov, O'rol Tansiqboyevning ilk ijodida, masalan, «Karvon», «Kurash» asarlarida, Anvar Mirsoatov, Abdumannon Yunusov kompozitsiyalarida ana shu ta'sir seziladi (3-rasm).

Impressionizm jahon san'ati tarixida yangi davr san'atining turli oqim va yo'nalishlari boshlanishiga yo'l ochdi. Shunday yo'nalishlar postimpressionizm deb yuritila boshlandi. Postimpressionistlar impressionizm yutuqlaridan bahramand bo'lganlari holda tasviriy san'atning yangi qirralarini ochishga intildilar, uning falsafiy va ramziy tomonlariga e'tibor berdilar. Ular impressionizm yutuqlari va realistik san'at an'analari uyg'unligida asarlar yaratish ustida ish olib bordilar va shu izlanishlari bilan jahon san'atini boyitdilar.

Neoimpressionizm yoki boshqacha nomi **puantilizm** shunday dastlabki izlanishlardan edi. Uning asoschilari Jorj Syora va Pol Sinyak bo'lib, ular



2-rasm. Alfred Sisley. Sena sohilidagi qishloq.

sof, toza spektr¹ ranglar surtmalarini yonma-yon qo'yib rasm ishladilar. Ularning ishlatgan rang surtmalari to'rtburchak va dumaloq nuqtalarga o'xshaganligi uchun ular yaratgan ishlarni puantistik rasmlar, ya'ni nuqtali, nuqtalardan foydalanib ishlangan rasmlar, ish uslublarini puantistik (puant—fransuzcha so'z bo'lib, nuqta ma'nosini beradi) uslub, deb nomladilar. O'zbekistonlik rassom Zuhridin Islomshikovning «Shohimardon» kartinasiga e'tibor bering (4-rasm). Unda rang surtmalari xuddi mozaikadek ishlab chiqilgan. Ochiq spektr ranglari idrok qilinganida shu ranglar o'z xususiyatini yo'qotib, yonidagi ranglardan ta'sirlanib, o'zgarib ko'rinadi. Masalan, sariq va havo rang yonma-yon qo'yilganida ular yashil tuslanishda idrok etiladi va h.k.

Fovizm. 1905-yili Parijda tashkil etilgan «Bo'ysunmaslar saloni» ko'rgazmasida ishtirok etgan Anri Marke, Jorj Ruo, Anri Deren, Anri Matiss o'z qarashlari, ishlash uslublari uchun «fovistlar» (fransuzcha yovvoyilar) deb atala boshlandi. Bunga sabab, ko'rgazmaga qo'yilgan asarlar mavjud qonun-qoidalarga rioya qilinmay ishlanganligi, ranglarning yorqin va tozaligi, erkin ishlatilganligi bo'ldi. Salon voqeasidan keyin shu ibora tez-tez ishlatilib va nihoyat XX asr boshlarida Fransiya rangtasvirida realizm tamoyillariga qarshi chiqqan badiiy uslubni ta'riflash uchun qo'llanila boshlandi. Bu rassomlar XX asr realizmi, naturalizm va impresionizm uslublarini inkor etib, sodda-primitiv san'at, o'rta asr san'ati, shuningdek, Sharq xalqlari san'ati uslublari asosida yangi davr san'atini yaratishga intildilar.

¹ Spektr rangi — kamalakning yettita rangi nazarda tutiladi (muallif).



3-rasm. A.Yunusov. Hovli.



4-rasm. Zuhridin Islomshikov. Shohimardon.

Shuning uchun ham ularning ishlariga xos xususiyat yaratilgan obraz va shakllarning sodda, kompozitsiyalarning sun'iyli va dekorativ tomoniga e'tibor kuchaytirilganligida hamda voqelikni erkin talqin etilishida ko'rinadi. Ular chiziq perspektivasi va borliqni o'ziga aynan o'xshash tasvirini ishlashga harakat qilmaydilar, hatto inkor etib, shakl buzilishlariga yo'l qo'yadilar, hajm chiqarishga intilmaydilar, balki rang va yassi shakllar holati orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalashga harakat qiladilar.

Anri Matiss (1869–1954) ijodida ushbu uslubning o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. U o'z ijodini golland ustalari ishlariga taqlid etishdan boshlab, ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi. Lekin rassom bu yo'ldan bormadi. Matiss o'z asarlarida Janubiy Fransiya, Shimoliy Afrika manzaralarini ishladi, interyerlar rasmini chizdi, meva, gul va buyumlardan natyurmort kompozitsiyalarini yaratdi. Portretchilikda ham qator asarlar qoldirdi. Ularning birortasida hajm, yorug'–soya masalalarini hal etishga, voqelikni tasvirlaganda murakkab sujetlar topishga harakat qilmadi. U borliqdagi buyumlardan olingan taassurotlarini o'ziga xos shakllarda ifodalashga intiladi. Ranglar kompozitsiyasi uning rangtasvir asarlarining asosini tashkil etadi.

Kompozitsiyadagi rang, chiziq, turli shakllar ritmi asarga musiqaviylik baxsh etadi. «Raq» deb nomlangan katta polotnoda rang va soddalashtirilgan raqsga tushayotgan odamlar tasviri ritmi raqs paytidagi holat va kayfiyatni ko'rsatishga yordamlashgan. Matiss o'z kompozitsiyalarini naqqosh naqshiga o'xshatib ishlagan.

2 - MAVZU

IMPRESSIONISTIK RANGTASVIR

Topshiriq. Impressionizm va puantilizm uslubida manzara ishlash.

Material. Oq qog'oz, akvarel va guash bo'yog'i, mo'yqalam, flomaster.


Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Impressionizm va puantilizm uslubi haqida suhbat.

2. *Amaliy qism.* Puantilizm uslubida rasm ishlash.

Avvalgi mashg'ulotlarda impressionizm va puantilizm haqida suhbatlashgan edik. Shularni yana bir bor eslab, impressionistik va puantilistik uslubda rasm ishlashga o'tishingiz mumkin. Buning uchun dastlab klassik manzara ishlash uslubidan foydalangan ma'qul. Bu uslub asoschisi italiyalik rassom Annibal Karrachi. U birinchi bo'lib manzara ishlashni planlarga, ya'ni birinchi, ikkinchi, o'rta qator va uchinchi, orqa qatorga ajratgan. Rassom birinchi qatorni to'q issiq rangda, ikkinchi qatorni o'rtacha iliq rangda, orqa, uchinchi qatorni sovuq rangda ishlab, asarlariga fazoviy kenglik kiritgan.

6- rasmga qarang. Unda ana shu manzaraning taxminiy rang tuzilishi shartli uchga ajratib berilgan. Birinchi qatordagi daraxt, shox-shabba va yo'l issiq yashil jigarrangda, o'rtadagi maydon sovuq ko'kimtir yashil rang gammasida va nihoyat orqa qatordagi havo va daraxtlar sovuq ko'k rangda ishlangan. Ranglarning shunday berilishi manzaraga fazoviy kenglik tuyg'usini kiritgan.

1- topshiriq. Berilgan sxemaga (5- rasm) yaqin manzara kompozitsiyasini ishlab, unga yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, puantilizm uslubida rang berib chiqing.



sovuq rang

o'rtacha iliq ranrlar

to'q issiq ranglar

5-rasm. Manzaraga rang berish sxemasi.

2- topshiriq. Impressionistik uslubda manzara ishlang va uning puantilizm uslubidan farqini aytib bering.

Mustaqil o'rganish uchun mashqlar

1. Rassom Pavel Benkovning «Chor Minor masjidi», P.Sinyakning «Qarag'ay» kartinalarini (6,7 - rasmlar) tahlil qiling, undagi yaqin va uzoqdagi buyumlarning rang o'zgarishini aniqlang, sanab o'ting va impressionistik uslub belgilarini aniqlang.

2. Impressionistik uslubda ijod qilgan rassomlar ishlaridan namunalar yig'ing.



6-rasm. Pavel Benkov. Chor Minor masjidi.

Izoh. Annibal Karrachi italiyalik rassom, klassik manzara uslubining asoschisi. 1560- yili Boloneda tug‘ilib, shu yerda 1609-yili vafot etgan. Bolone Akademiyasining asoschilaridan biri, akademik san‘ati tamoyillarini ishlashda muhim o‘rin egallagan. Karrachi mahobatli rangtasvir, portret, manzara janrida ijod qilgan.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha topshiriq

1. Klod Monening «Parijdagi opera ko‘chasi» asarida impressionizmga xos xususiyatlarni aniqlang.
2. A. Sisleyning «Sena sohilidagi qishloq» (2-rasm) asaridagi impressionizm uslubi belgilarini ko‘rsating.
3. O‘zbekistonlik rassomlarning impressionistik uslubda ishlangan asarlarini sanab chiqing va ularni sharhlab bering.



7-rasm. P.Sinyak. Qarag'ay.


3 - MAVZU

KUBIZM USLUBIDA NATYURMORT ISHLASH

Topshiriq. Kubizm uslubida natyurmort ishlash.

Material. Oq qog'oz, qalam, akvarel va guash bo'yoqlar, mo'yqalamlar.

Kubizm uslubida rasm ishlash ko'plab rassomlarni o'ziga jalb etib kelgan. Rassomlar bu uslubda ko'proq natyurmort va qisman manzara hamda portret ishlaganlar. Kubizm uslubida natyurmort ishlash uchun qo'yilgan buyumlar qo'zg'almas bo'lib, uni kuzatib, geometrik asoslarini o'rganib, taqqoslab, so'ng tasvirni ishlash mumkin.



8-rasm. Ko'za tasvirining konstruksiyasi.

Masalan, ko'za rasmiga e'tibor bering (8-rasm). Rassom chizishni o'rganishda ana shu natyurmortga qo'yilgan buyumlarni geometrik asoslarini asoslab olgan holda har bir buyumning geometrik asosini aniq ko'rsatishga, ularning og'irligini tasvirlashga harakat qilishi lozim.

Shu uslub asoschisi Pol Sezann o'z xatlaridan biridagi «Sen tabiatda silindr, shar va konusni ko'rishing kerak», degan fikri shu uslub asosini tashkil etadi. Borliqdagi buyumlarning asl o'zgarmas shaklini yaxlit ko'rish, his etish va shundan zavq olish, so'zsiz, har bir rassom uchun chuqur hissiy tuyg'ular beradi. Borliqni to'laqonli idrok etish malakasini oshiradi.

1-topshiriq. Murakkab bo'lmagan natyurmort qo'ying. Undagi har bir buyumning geometrik shaklini toping.

2-topshiriq. Har bir buyumning natyurmortdagi o'rnini belgilab, rasmini esda tuting. Kubizm uslubida rasm chizgan rassomlar har bir buyumning atrofini aylanib ko'rayotgandek qilib rasmini chizishga intilganlar.



9-rasm. Pol Sezann. Natyurmort.

Postimpressionizmning vakili fransuz rassomi Pol Sezann 1839-yili Fransiya tug'ilgan. Parijdagi Syuiye Akademiyasida o'qigan. Naturani qunt bilan o'rganib, bir buyumni uzoq vaqt kuzatib, rasmini chizib, shu buyumga xos eng muhim tomonlarini topishga va tasvirlashga harakat qilgan (9-rasm). Tasvirda fazoviy bo'shliqni his qilish darajasida tasvirlanishiga, ya'ni shakl

tuzilishidagi konstruksiyasini his etishga intilgan. Rassom ko'p rang ishlatmaydi. Asosan, yashil, ko'k va sariq ranglar uning ko'pgina asarlari rang tizimini belgilaydi.

4 - MAVZU

TASVIRIY SAN'ATDA RAMZIY BELGI VA GERALDIKA

Topshiriq. 1-variant: O'zbekiston gerbining grafik kompozitsiyasini ishlash.

2-variant: loy yoki plastilindan O'zbekiston gerbining barelyef (yarim qabariq) tasvirini ishlash.

3-variant: ganch yoki yog'ochdan O'zbekiston gerbining qabariq tasvirini ishlash (o'yish).

Material. 1-variant uchun: oq qog'oz, qalam, akvarel va guash bo'yoqlari, mo'yqalamlar.

2-variant uchun: loy yoki plastilin, turli shakldagi steklar.

3-variant uchun: oldindan tayyorlangan ganch quymasi yoki silliqlangan 15x15 o'lchamdagi taxtach. O'yish uchun ish qurollari.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Tasviriy san'atda geraldika haqida ma'lumot berish.

2. *Amaliy qism.* O'zbekiston gerbining dekorativ tasvirini ishlash.

Har qanday davlat suverenlik (mustaqillik) maqomiga ega bo'lishi uchun uning muqaddas timsollari — bayrog'i, madhiyasi, gerbi va milliy valyutasi bo'lishi lozim. Bu muqaddas timsollar davlatning milliy bayramlarida, davlatlararo yuqori martabali tashriflarda, shuningdek, mamlakat sportchilari xalqaro musobaqalarda g'oliblik shohsupasiga chiqqanlarida ko'tariladi, yangraydi. O'zbekistonning muqaddas timsollaridan uning Bayrog'i va Davlat Gerbi mamlakatning rasmiy dargohlarida ham doimiy o'rnatilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida tasdiqlangan. Gerbning yaratilish jarayonida Respublikamizning bir qator taniqli musavvirlari ishtirok etganlar. Ular orasida rassom Anvar Mamajonov tomonidan taqdim etilgan variant g'olib deb topilgan. Demak, O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasvirining muallifi taniqli grafik rassom Anvar Mamajonovdir (10- rasm).

O'zbek grafik rassomi Anvar Mamajonov 1950-yil 22-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. Musavvirlikka 1968 — 1973-yillarda Toshkent Teatr va rassomlik san'ati institutining rassomlik fakultetida (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti), E. Liyepene va B.P.Shupaklarning ustaxonasida o'qidi. O'zining ijodiy faoliyati davomida Alisher Navoiy asarlarining antologiyasi, Pirimqul Qodirov, Muhammad Ali, Azim Suyun, Xurshid Davron, Yamin Qurbon, Muxtor Xudoyqulov kabi shoir va yozuvchi-



11-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi.

10-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirining muallifi Anvar Mamajonov.

larning asarlari, shuningdek, xalq dostonlari, Afandi latifalarini badiiy bezagan. Amerika Qo'shma Shtatlari, Bahreyn, Belgiya, Liviya, Marokash, Tunis, Hindiston kabi mamlakatlarda uning shaxsiy ko'rgazmalari bo'lib o'tgan. Rassom 20 dan ortiq xalqaro ko'rgazmalar ishtirokchisi. Rassom keyingi yillarda ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash borasida o'tkazilayotgan tadbirlarning ramziy emblema(emblema — lotincha shartli tasvir)larining ham muallifidir. Alpomish, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Manguberdilarning yubileylariga ishlangan emblemalar shular jumlasidandir.

Respublikamiz Gerbining tuzilishi dumaloq shaklga ega. Uning chap tomonida paxtaning ochilgan chanoqlari, o'ng tomonida esa to'kinchilik, qut-baraka ramzi — bug'doy boshloqlari chambaragi O'zbekiston bayrog'i bilan o'ralgan holda tasvirlangan. Gerbning yuqori qismida jipslik timsoli sifatida ichida yarim oy va yulduz tasvirlangan sakkiz burchak uning chap va o'ng chambaraklarini ramziy bog'lab turadi (11-rasm).

Xalqimizda turli rivoyat va afsonalar bor. Unda afsonaviy Humo qushi oliyjanoblik, himmat, fidoyilik, ezgulik ramzi sifatida tarannum etiladi. Respublikamiz Gerbida tasvirlangan qanotlarini yozib turgan Humo qushi xalqimizning tinchlik, totuvlik, farovonlik, yaxshilik, baxt-u saodatga intilish yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Tasviriy san'atning ramziy belgilar bilan bog'liq bo'lgan sohasi ham mavjud. Bu soha o'zida rangtasvir, grafika, dizayn san'ati elementlarini mujassam etgan holda shaharlar, mamlakatlarning ramziy belgilari — gerblarini tasvirlaydi. Gerb juda qadimiy rasmiy va ramziy timsol. U bir necha ming

yillik tarixga ega. Bu davrlar ichida juda ko‘plab gerblar ishlangan. Gerb (nemischa «erbo», polyakcha «xerb» so‘zidan olingan) shahar yoki davlatning o‘ziga xosligini, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud, tabaqa, urug‘ va shu kabilarning nasldan naslga meros bo‘lib qoluvchi mulk belgisini anglatadi. U bayroq, tanga va boshqa buyumlarga tushirilgan ramziy ma‘nodagi shakl va predmetlar birligidan iborat nishon, vorislik belgisidir. Tarixda uning quyidagi asosiy turlari uchraydi: davlat gerbi, yer-mulk gerbi, korporatsiya gerbi (o‘rta asrlar ustaxonasi), urug‘ gerbi (dvoryan va burjua urug‘lari). Gerblarni tuzish, uning ma‘nosini talqin etish, o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi soha geraldika (lotincha heraldus) – gerbshunoslik deb ataladi. Geraldika – tarix fanining gerbni tarixiy manba sifatida o‘rganuvchi yordamchi vositasi, sohasidir. Gerblar, tamg‘alar mulkka egalik belgisi sifatida me‘moriy inshootlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol-aslahalar, tanga, medal, san‘at asarlari, qo‘lyozma, kitob va boshqa qimmatli buyumlarga tushirilgan. Demak, tasviriy san‘atning bu sohasi qadimiy sohadir.



*12-a rasm. Ovrupo Xun
xoqonligi bayrog‘i
(375—454-yy.).*



*12-b rasm. Buyuk Xun xoqonligi
bayrog‘i
(m.avv. 204 va m. 216-y.).*



13-rasm. Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat Gerbi.

bida uch halqa, Buxoro (Ashtarxoniylar sulolasi) gerbida yoy va uning ustida gulzor tasviri, buyuk Xun xoqonligi (miloddan avvalgi 204 va milodiy 216-yillar) gerbida ajdaho, Yevropa Xun xoqonligi (375 –454-yillar) gerbida tojli burgut tasviri tushirilgan (12-a, b rasmlar). Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya Federatsiyasining gerblari ham burgut tasviridan iborat (13-rasm). O'zbekistonning gerbida ham afsonaviy Humo qushining tasvirlanishida tarixiy mantiq bor. Barcha gerblar uchun umumiy bo'lgan jihat – avvalo ularning tasviriy san'at asari ekanligidir.

Gerblar haqida umumiy ma'lumot va O'zbekiston Respublikasi gerbining asosiy ramziy elementlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lgach, uni amalda chizib ko'ring. Topshiriqning variantlari ixtiyoriy tarzda tanlanadi, ya'ni kompozitsiyalarni o'z qiziqishingiz va imkoniyatlaringizga qarab loy yoki plastilindan barelyef (bo'rtma), applikatsiya, inkrustatsiya (qadama), o'ymakorlik (yog'och, ganch) usu-

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, gerb miloddan oldingi uchinchi ming yillikda mavjud bo'lgan. Ibtidoiy jamiyatda qadimiy dunyo xalqlarining ko'plab ramziy tasvirlarida gerbning dastlabki namunalari uchraydi. Ular totemistik («totem» – inglizcha «totem», urug', qabila ma'nosini anglatadi) ko'rinishga ega bo'lib, har bir urug' yoki qabila o'z totemiga ega bo'lgan va bu totem uning homiysi hisoblangan. Shu bois juda ko'p mamlakatlarning gerblarida hayvon tasvirlari saqlanib qolgan. Misol uchun, Shumer davlati gerbida sher boshli burgut, qadimgi Rim davlati gerbida burgut, Venetsiya gerbida qanotli sher, Amir Temur ger-



14-a rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tushirilgan dekorativ kompozitsiya.



14-b rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasviri tushirilgan dekorativ kompozitsiya varianti.



15-a rasm. Toshkent shahrining gerbi.



15-b rasm. Beneshov-Shumove shahrining (Chexiya) gerbi.

lida ishlashingiz mumkin. Gerb tasviri ishtirokida grafik usulda dekorativ kompozitsiyalar ishlash variantlari 14- *a, b* rasmlarda ko'rsatilgan. Unda gerbning gazeta, jurnal, otkritkalardan kesib olingan tayyor tasviridan foydalaniladi.

15-*a, b* rasmlarda turli shaharlarning gerblari tasvirlangan.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Maktabingiz, mahallangiz, o'z firmangizning gerbini, ramziy belgisi — emblemasini ishlang.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Gerb so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi tasvirini qaysi rassom ishlagan?
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbidagi tasviriy elementlar qanday ramziy ma'nolarni anglatadi?
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qanday joylarga o'rnatiladi?

5 - MAVZU

O'ZBEKISTONNING AMALIY BEZAK SAN'ATIDA RAMZIY SHAKLLAR

Topshiriq. 1-variant (o'g'il bolalar uchun): so'zana uchun naqsh kompozitsiyasini tuzish.

2-variant (qiz bolalar uchun): zardo'zlik namunasi uchun naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Material. Turli tusdagi qog'ozlar, akvarel va guash bo'yoqlari, mo'yqalamlar.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Amaliy bezak san'atining tarixi va unda qo'llaniladigan shakllarning ramziy ma'nolari haqida ma'lumot berish.

2. *Amaliy qism.* Ramziy shakllardan naqsh kompozitsiyasini tuzish.

O'zbekistonning amaliy bezak san'atini go'zal naqsh bezaklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu san'at turi namunalarining eng oddiyidan tortib o'ta murakkablarida ham, o'lcham jihatidan mo'jazlaridan tortib to mahobatli namunalarida ham ramziy ma'no kasb etgan shakllarni ko'rishimiz mumkin. Bunday nafis bezaklarni bolalar o'yinchoqlarida, beshiklar, sandiqlar, kursilar, stollar, xontaxtalar, qutichalar, shaxmat taxtasi, otning egarlari, choyshab, belbog'lar, so'zanalar, palaklar, kashtalar, gilam-kigizlar, zargarlik buyumlari, zardo'zlik va shu kabi badiiy hunarmandlik namunalarida ko'rishimiz mumkin.

O'zbek ustalarining amaliy bezak san'atiga oid asarlarida xalq madaniyati va turmush tarzi o'z aksini topgan. San'atning bu turi juda qadimiy bo'lib, asrlar osha rivojlanib, takomillashib kelgan. Bizning davrimizda ham amaliy bezak san'ati rivojlanib, shuhrati dunyoga mashhur bo'lib bormoqda. Bu san'at namunalari Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi shaharlardagi muzeylarning doimiy ko'rgazmasi (ekspozitsiyasi¹)dan joy olgan.

O'zbekistonning amaliy bezak san'atida rang va naqsh ramziyligi alohida o'rin tutadi. Qaysi bir tasvirni olmaylik, uning zaminida albatta biror bir ramziy ma'no bor.

Hozir faqat zardo'zlik san'atining tarixi va unda qo'llaniladigan ramziy shakllar xususida to'xtalib o'tamiz.

Zardo'zlik o'zbek xalqining keng tarqalgan amaliy bezak san'at turi bo'lib, markazi Buxoro shahri bo'lgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, uning dastlabki namunalari ilk o'rta asrlar (eramizning VI – VII asrlari) ga tegishli bo'lgan.

Zardo'zlik san'ati XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahrida rivoj topdi. Biroq, bu yerdagi ustaxonalarda etik, mahsi, to'n, belbog', do'ppi kabi zar bilan bezatilgan kiyimlar faqat hukmdorlar, badavlat kishilar, xorijiy elchilarga tortiq qilish uchun maxsus tayyorlanar edi.

Buxorolik mashhur ustalar Usta Salim, Usta Olimjon Majidov, Usta Fayzullo G'aybullayevlar yaratgan zardo'zlik buyumlari hozirgi kunda dunyoning bir qator muzeylarida saqlanadi. O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, O'zbekiston Xalq amaliy san'ati muzeylarining ekspozitsiyalari orasida ham zardo'zlik san'ati namunalari bor.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bu san'at turi mamlakatimizning boshqa hududlarida ham rivojlana boshladi. Endilikda Toshkent badiiy buyumlar fabrikasida, xususiyl firmalarda ishlab chiqarilayotgan so'zanalar, zarchoponlar turmushimizga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Bugungi kunda kelin-kuyovlar, to'ybolalar, yubilyarlar, ulkan yutuqqa erishganlarga zarchopon kiydirish odat tusiga kirib bormoqda. Toshkentda o'tkazilgan «Prezident Kubogi» xalqaro tennis turnirining g'oliblari — ingliz Tim Xenman, shvetsariyalik Mark Ruzetskiy, rossiyalik Marat Safinlarga O'zbekiston Prezidenti zarchopon kiydirdi. Andijonlik bokschi

¹ Ekspozitsiya – *lotincha* expositio – bayon, ta'rif, tavsif, tasvir ma'nosini anglatadi. Demak, muzey ekspozitsiyasi namoyish etilayotgan buyum haqida to'liq ma'lumot beradi.



16-rasm. Bodom kashtasi. Choponning bir qismi. XIX asr oxiri.



17-rasm. Majnuntol kashtasi. XIX asrning ikkinchi yarmi.

Muhammadqodir Abdullayev Mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi bor Olimpiada chempioni bo'lib, zarchopon kiyganida har bir o'zbekistonlikning g'ururlanganligi amaliy san'atning bu turi o'zbek xalqining iftixoriga aylanganidan dalolatdir.

Zardo'zlik san'atida qo'llaniladigan ramziy shakllar ham insonlar hayoti bilan chambarchas bog'liq. Undagi naqsh elementlaridan bodom, uzum, uzum gajagi, paxta, buta, daraxt, turli shakldagi gullar, ko'za va undagi buta, zirk butasi (turunj), kungaboqar, majnuntol, novda va yaproq kabilarning shakllari stilizatsiyalashtirilgan (badiiylashtirilgan) ko'rinishda qo'llaniladi.

Amaliy bezak san'atida, ayniqsa, zardo'zlikda bodom tasviri ko'p qo'llaniladi (16-rasm). Chunki u baxt-iqbol ramzi hisoblanadi. Uning bir-oz cho'zinchoqroq shakli — qalampir tasviri esa yomon ko'zdan asrash maqsadida qo'llaniladi. Anor esa to'kinchilik, ezgulikning ramziy tasviri sifatida ishlatiladi. Gulsafsar — osoyishtalik va umrboqiylik, to'lqinsimon gul poyasi — boylik va farovonlik, novda va yaproqlar esa to'kinchilik va uyg'onishni anglatadi.

Yuqorida eslatib o'tilgan ramziy shakllar ko'proq amaliy bezak san'atining zargarlik turida ishlatiladi. O'zbekiston naqsh ramzlari haqidagi ma'lumotni keyingi mavzuda davom ettiramiz.


Endi o'rgangan ramziy shakllardan mustaqil kompozitsiya ishlang. Kompozitsiyani so'zana, palak yoki zardevorga moslab tuzing. 17-rasmda majnuntol yaqqol sezilib turibdi. Uning elementlarini boshqacha kompozitsiya



18-rasm. Amaliy san'atda qo'llaniladigan naqshlarning shakllari tabiatdan olinadi.



19-rasm. Kashta tikish.




20-rasm. Tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirish:
a) lola; b) shox; d) paxta; e) bodom; f) kungaboqar.

qilish ham mumkin (18–19-rasmlar). Ramziy ma’no kasb etuvchi tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirish namunalarini 20-rasmdan diqqat bilan kuzating. 21-rasmdagi kungaboqar va bodom tasviridan ham kompozitsiyaning o’zgacha variantini ishlash ustida o’ylab ko’ring.

Topilgan ramziy shakllardan so’zana uchun naqsh ishlang. So’zaning foni, ya’ni naqshlar tushiriladigan mato to’q rangda bo’lishini unutmang. Ko’p hollarda qora mato tanlanadi. Shuning uchun bu vazifani guash bo’yog’ida bajargan ma’qul.

Qiz bolalar zardo’zlik namunasi uchun kompozitsiya tuzib, uni mustaqil tarzda tikishlari mumkin. U kichkina to’n, qiyiq, do’ppi kabi uncha murakkab bo’lmagan buyumlar bo’lishi maqsadga muvofiqdir. Yodingizda tuting, zardo’zlik buyumlari sifatli, qalin matolarga tikiladi. Odatda, baxmal, velyur kabi materiallar tanlanadi.



21-rasm. Kungaboqar va bodom tasviri qo'llanilgan naqshli hoshiya. XIX asr oxiri.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Amaliy bezak san'ati namunalari qanday buyumlarga tushirilgan?
2. Ularning namunalarini qayerlarda uchratish mumkin?
3. Ramziy belgi va shakllar haqida nimalarni eslab qoldingiz?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. I.Azimov. O'zbekiston naqsh-u nigorlari. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
2. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T., «Mehnat» nashriyoti. 1991.
3. P.A.Goncharova. Buxoro zardo'zlik san'ati (Albom). T., 1986.

IKKINCHI CHORAK



6 - MAVZU

O'ZBEKISTON NAQSH RAMZLARI

Topshiriq. Tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirish yordamida naqsh elementlarini hosil qilish.

Material. Oq qog'oz, qalam, o'chirg'ich, akvarel bo'yog'i, mo'yqalamlar.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Tabiiy shakllar va ularning ramziy ma'nolari haqida ma'lumot berish.

2. *Amaliy qism.* Tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirish yordamida amaliy san'atda qo'llaniladigan naqsh elementlarini chizish.

Xalq amaliy san'ati azaldan kishilar turmushini bezash vositasi bo'lib kelgan. Qadimda uylar, masjidlar, madrasalar ana shu san'at turi yordamida bezatilgan va maxsus bo'yoqlarda sopollarga, koshinlarga, rangin ipaklar yordamida kashtalarga bitilgan. Bu bezaklarning namunalari hozirga qadar saqlanib qolgan. Bizga zamondosh bo'lgan xalq ustalari va chevarlar bu an'analarni davom ettirmoqdalar.

Bezaklar va ularni yaratishning o'ziga xos tizimi mavjud. Bu obrazli tizim o'zida ko'pgina ma'no va mazmunlarni aks ettiradi. Masalan, kashtachilikning so'zana, palak, dorpech, kashta va joynamoz kabi turlari mavjud. Ularning o'ziga xos maqsadi va vazifalari bor. Kashtalar, odatda, katta o'lchamlarda tikilgan va xonalarni bezashda qo'llanilgan. Kashtalardagi naqsh kompozitsiyalari oq yoki rangli matoga ipaklar bilan tikiladi.


Kashtalarning naqsh elementlarida hayvon va o'simlik dunyosining ramziy shakl va ma'nolari stilizatsiyalashtirilgan holda qo'llaniladi.

So'zanalarda naqsh elementlari ko'proq doira shakliga bo'ysundiriladi. Dumaloq ko'rinishlardagi bezak elementlari koinot va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglatadi. Ularning kompozitsiyasida o'simliksimon naqsh elementlari ham aralashtirilgan holda qo'llaniladi.

Uning ichki qismida bezak vazifasini o'taydigan zardevor va palaklarda ham asosan doira shaklidagi naqshlar qo'llaniladi.

O'zbekiston amaliy bezak san'atida soddalashtirish va badiiylashtirish hisobiga turli tabiiy shakllarning naqsh elementlari sifatida qo'llanishida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor. Masalan, naqshda paxta elementining qo'llanilishi mazkur ekinning milliy iftixor tariqasida tarannum etilishini anglatadi. Shu bois ham o'zbek chinni buyumlarining eng qadrlisi aynan paxta gulli choynak-piyola, kosa-tovoqlardan iboratdir. Naqsh elementlarida anor, olma, bug'doy, uzum va uning yaprog'i, jonli mavjudot tasvirlari — qo'chqorning shoxi, xo'rozning toji va boshqa tasvirlar ham badiiylashtirilgan holda amaliy bezak san'atida qo'llaniladi. Shuningdek, boshqa misollarni ham ko'rsatish mumkin. Masalan: Anor — to'qchilik va to'kin-sochinlik ramzi. Anorgul — kulolchilik, miskarlik, kashtachilik, to'qimachilik, naqqoshlikda ko'p ishlatiladi. Bodom — baxt-iqbol ramzi. Zirk guli — juda chiroyli yaproqli gul, O'rta Osiyo naqshlarida qadimdan ajdodlarimiz tomonidan osoyishtalik va umrboqiylik ramzi sifatida qo'llanilib kelinadi. Kabutar — tinchlik va osoyishtalik, oygul — baxt-iqbol ramzi.

Gul, butoq, daraxt singari islamiy naqshlar ramziy ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Masalan, gullagan bog' ramzi — hayotning go'zalligi, baxt, farovonlik kabi sifatlarga bog'langan. To'liqinli o'simlik poyasi — tinimsiz ijod va tabiat tarovati, to'liqinlar — shiddatli hayot oqimi, gul esa yorug' olam go'zalligi va hokazolarning ramziy ifodalarini anglatgan.



22-rasm. a) barg; b) g'uncha.

Naqqoshlikda g'uncha elementi ham ko'p qo'llaniladi (22-rasm). U hayotning davomiyligi, ajdodlar o'rnini avlodlar egallab borishini anglatadi. Lola ham bahor, yoshlik va jo'shqinlik alomati sifatida ko'p qo'llaniladigan element hisoblanadi (20-a rasm). Tabiatdan olingan barg ham naqsh kompozitsiyasini to'ldiruvchi va uning jozibasini oshiruvchi element sifatida ko'p ishlatiladi. Barglarning tabiiy ko'rinishini stilizatsiyalashtirilgan variantlari asosida oddiy va murakkab barglar ixtiro qilingan. Ular shobarg, qo'shbarg, ko'pbarg, chor barg (to'rt bargli naqsh elementi) deb ataladi (22-rasm). Naqsh kompozitsiyalarida jiyda guli, gultojixo'roz elementlarini ham uchratish mumkin.

O'zbekiston amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan naqsh ramzlari, ularning tabiiy shakli va stilizatsiyalashtirish haqida tasavvurga ega bo'ldingiz. Endi o'zingiz uchun tanish bo'lgan tabiiy materiallarni stilizatsiyalash orqali naqsh elementlarini chizing. Stilizatsiyalash — shakllarni badiiyalashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Stilizatsiya nima?
2. Naqsh elementlarini stilizatsiyalash yordamida hosil qilishda nimaga asoslaniladi?
3. Stilizatsiyalashtirilgan tabiiy shakllar qanday ramziy ma'no kasb etadi?
4. Siz yana qanday tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirib naqsh elementlarini hosil qilgan bo'lar edingiz? Shu haqda o'ylab ko'ring.

7 - MAVZU

AMALIY BEZAK SAN'ATINING OBRAZLI TIZIMI

Topshiriq. Turli shaklda (kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, aylana va h.k.) naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Material. Qog'oz, qalam, o'chirg'ich, sirkul, chizg'ichlar.

- Darsning mazmuni.** 1. *Nazariy qism.* Amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan shakllar, ranglar va ularning ramziy ma'nosi haqida; amaliy bezak san'ati, uning turlari va maktablari, mashhur ustalar haqida ma'lumot berish.
2. *Amaliy qism.* Geometrik shakl asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Naqsh namunalarida qo'llaniladigan turli geometrik shakllarning ham ramziy ma'nolari bor. To'rtburchak (g'isht, xisht) — ishonch ma'nosini anglatadi. Bir-biriga qalashtirib tikilgan, to'qilgan va chizilganligi g'ishtdan qurilgan imoratning mustahkamligi, unda insonlarning xotirjam yashashi ma'nosini anglatadi. Shuning uchun naqshda gullar, yo'llar — islimiy elementlar, girixda qo'llaniladigan geometrik shakllar bir-biri bilan qalashtirib, aralashtirib,




23-rasm. Farg'ona naqshi. Qo'qon. XIX asr boshi.

o'raltirib tasvirlanadi. Boisi, insonlar hayoti bir-biri bilan bog'liq: bir sayyora, bir mamlakat, bir maktab, bir sinf, bir tashkilot, bir oilada yashaydi, mehnat qiladi, o'qiydi.

Naqqoshlik san'atida to'rt tomoni teng to'rtburchak kvadrat (lotincha quadratus, arabcha murabba) — abadiylik, yorug'lik; romb — ona-Yer; besh qirrali yulduz — dunyoning o'tkinchi ekanligi; quyosh — hayot ramzi; bulut, olov — g'oliblik ramzi; aylana — baxt, insonlarni yovuz niyatlardan qaytarish; yarim oy (oygul), Humo qushi — baxt-iqbol; yangi chiqqan oy — musulmonlik ramzi; qalampir — yomon ko'zdan asrash; olma — muhabbat; bulbul — sadoqat; oq kabutar — tinchlik; boyo'g'li (boyqush) — hushyorlik; tulki — ayyorlik, makkorlik; sher — mardlik, jasorat; ohu — noziklik, go'zallik, himoyasizlikni anglatadi.

Xalq amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan ranglar ham o'ziga xos ma'no, mazmun kasb etadi. Qora — motam, sariq — ayriliq, oq — musaffolik,



24-rasm. Xiva naqshi. XIX asrning birinchi yarmi.

tozalik, yorug'lik, baxt; zangori — oliy e'tiqod; ko'k — moviy osmon, tinchlik; qizil — g'alaba, shodlik va xursandchilik; yashil — ona-tabiatni ifoda etadi.

Amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan ramziy shakllar va ularning ma'nosi insonlar hayoti kabi tarixiy va rang-barang, insonlar hayoti bilan hamnafas. Insonlarning hayoti, turmush tarzi, mahalliy sharoiti turli-tuman bo'lganligi uchun amaliy san'atda qo'llaniladigan ramziy shakllar, rang va tasvir usullari ham turlicha bo'ladi. Misol uchun, naqqoshlik san'atini olsak, unda Farg'ona, Xiva va Toshkent naqsh maktablari mavjud. Ularda o'zbek xalq amaliy san'atining xususiyatlari bilan birga mahalliy o'ziga xoslik bor.

Bu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang berishdagi o'ziga xosligida Farg'ona maktabi naqshlarida chetlari chiroyli qilib aylantirilgan, ranglar esa qizil va yashil bo'yoqlarining to'yingan tuslari bilan bo'yaladi (23- rasm). Xorazmda esa usta musavvirlar naqsh yuzasini novda-yo'l va g'uncha,



25-rasm. Toshkent naqshi. XX asrning birinchi yarmi.

shuningdek, geometrik naqshlar bilan to'ldirib, asosan, moviy rangli bo'yoqlar bilan go'zallik yaratadilar (24-rasm). Toshkent maktabi naqshlarida ranglar koloritining qat'iyligi, naqsh elementlari, ayniqsa, gullar, barglarga mehr bilan targ'il berish orqali ular jozibasi ta'minlanganligini ko'ramiz. Ular bir xildagi ranglarning turli tuslarini qo'llashga ko'proq e'tibor qaratadilar (25-rasm).

Toshkent naqqoshlik maktabining shakllanishi va rivojlanishida Yoqubjon Raufov, Toir To'xtaxo'jayev, Jalil Hakimov, Anvar Ilhomov kabi naqqoshlar, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Ortiq Fayzullayev kabi ganch va yog'och o'ymakorlarining xizmati katta bo'lgan.

Toshpo'lat Arslonqulov (1882–1962) (26-rasm). *Ganch o'ymakori. O'zbekiston xalq rassomi (1944), Davlat mukofotining laureati (1948), bir necha orden va medallar bilan taqdirlangan. Bir qator madaniy, maishiy va ma'muriy binolarni, shu jumladan, XX asrning boshida xususiy uylar,*



26-rasm. Ganchkor Usta Toshpo'lat
Arslonqulov.



27-rasm. Ganchkor Usta Shirin
Murodov.


keyinchalik, Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet akademik Katta teatri binolarini bezashda ishtirok etgan.

Xiva naqqoshlik maktabida esa Ota Polvonov, Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubovlar o'z asarlari bilan boy madaniy meros qoldirganlar.

Farg'ona naqqoshlik maktabi vakillarining ijodida yuqorida aytib o'tilgan o'ziga xoslikdan tashqari, Toshkent va Xiva naqqoshlik maktablarining an'analarini qo'llash hollari ham uchraydi. Saidmahmud Norqo'ziyev, Abdug'ani Abdullayev, Asqar Akbarov, Qodirjon Haydarov kabi ustalar nafaqat O'zbekistonda, balki bir qator chet mamlakatlarda ham o'zlarining noyob san'atlarini namoyon etganlar.

Buxorolik Usta Shirin Murodov, samarqandlik Usta Kuli Jalilov, Usta Shamsiddin Jalilovlar mamlakatimizdagi ko'plab madaniy-ma'rifiy binolar qurilishida ishtirok etgan mashhur naqqosh, ganch va yog'och o'ymakorlaridandir.

Usta Shirin Murodov (27-rasm). 1879-yilda Buxoro shahrida ganch o'ymakori ustasi oilasida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi (1943), Davlat mukofotining laureati (1948), bir qancha orden va medallar bilan taqdirlangan. Buxoro, Samarqanddagi qadimiy me'moriy obidalarni ta'mirlashda, Buxorodagi Sitorai Mohi-Xosa, Toshkentdagi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, Navoiy nomidagi Davlat opera va



28-a rasm. Usta yog'och o'ymakori Qodirjon Haydarov.

balet akademik Katta teatri binosining qurilishida ishtirok etgan. 1957-yilda Toshkent shahrida vafot etgan.

Qodirjon Haydarov (28-a rasm) 1899-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Xalq rassomi, davlat mukofotlarining laureati. Asarlari O'zbekiston tarixi muzeyida, xalq amaliy san'ati muzeyida saqlanadi. U Tarix muzeyi, O'zbekiston Badiiy akademiyasining «Xamar» ko'rgazma zalining o'ymakor eshiklarini ishlagan.

O'zbekiston xalq amaliy san'atida qo'llaniladigan naqsh elementlari, ularning tabiiy va stilizatsiyalashtirilgan variantlari, naqsh elementlarining ramziy belgi va mazmuni haqida tasavvurga, amaliy san'at ustalari — naqqoshlar, ganch va yog'och o'ymakorlari haqida ma'lumotga ega bo'ldingiz. Olgan taassurotlaringiz, egallagan bilimlaringiz asosida mustaqil tarzda naqsh kompozitsiyasi tuzing. Uning shaklini (doira, kvadrat, yo'l ichida) ixtiyoriy tarzda olishingiz mumkin. Naqsh kompozitsiyasida ramziy shakllar, ranglarning bir-biriga mutanosib bo'lishiga e'tibor bering.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati buyumlarini bezashda qanday tabiiy shakllar qo'llaniladi?



28-b rasm. Qodirjon Haydarov maktabining davomchisi, O'zbekiston xalq ustasi Abdug'ani Abdullayev.

2. Xalq amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan shakl va ranglarning ramziy ma'nolarini sharhlab bering.

3. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'atining ganch va yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik turlarida qanday maktablar mavjud? Ularning taniqli vakillarini sanab chiqing.

4. Xalq ustalari ta'mirlagan va qurilishida ishtirok etgan qaysi me'moriy obidalarni bilasiz?

Mustaqil o'rganish uchun adabiyotlar

1. I. Azimov. O'zbekistonning naqsh-u nigorlari. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
2. S. Bulatov. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid atamalar izohli lug'ati. T., Mehnat nashriyoti. 1981.
3. S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T., «Mehnat» nashriyoti. 1981.
4. Q. Qosimov. Naqqoshlik. T., 1982.
5. M. Usmonov. San'atim — saodatim. T., 1983.
6. H. Karimov. Usto Qodir. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.

8 - MAVZU

AMALIY BEZAK SAN'ATIDA SHAKL VA MAZMUN

Topshiriq. 1-variant: loydan kichik ko'zacha — guldond yasash.

2-variant: quticha uchun naqsh kompozitsiyasini ishlash.

Material. 1-variant uchun: kulolchilik uchun yaroqli bo'lgan loy, unga ishlov berish moslamalari va qurollari.


2-variant uchun: qog'oz, qalam, o'chirg'ich, akvarel va guash bo'yoqlari, mo'yqalamlar, oldindan tayyorlangan quticha.

Darsning mazmuni. *Nazariy qism.* Amaliy bezak san'atida shakl va mazmun mutanosibligini kulolchilik misolida tahlil etish. Kulolchilik san'ati tarixi, usta kulollar haqida muxtasar ma'limot berish.


O'zbek xalq amaliy bezak san'ati avvalo shakl va mazmun mutanosibligi bilan go'zaldir. Bu mutanosiblikni ganch va yog'och o'ymakorligi, badiiy kulolchilik, amaliy san'atning boshqa turlarida ko'rishimiz mumkin.

Shakl va mazmun mutanosibligi, ayniqsa, badiiy kulolchilik, kandakorlik, miskarlikda alohida ahamiyat kasb etadi. Nega xumlar aynan loydan tayyorlanishini hech o'ylab ko'rganmisiz? Nima uchun unga maxsus tuproqdan loy tayyorlab, undan sopol buyum tayyorlanguncha ma'lum texnologik jarayonlar bajariladi? Nima uchun ko'zaning konstruktiv tuzilishi shu ko'rinishda hal etilgan? Ular ham shakl jihatidan turli-tuman-ku? Bu turli-tumanlik, avvalo, ularning funksiyasidan kelib chiqadi.

Ko'zalar maishiy turmushning eng qadimiy buyumlari hisoblanadi. Qadimiy ko'za buyumlarining qoldiqlari O'zbekistonning Tuproqqal'a, Xalchayon, Bolaliktepa kabi tarixiy joylarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan. Ularning ayrimlari bundan ming yillar oldin yasalgan. Demak, kulolchilik buyumlari (laganlar, kosalar, choynak-piyolalar, ko'za va xumlar)ning bizga ma'lum bo'lgan shakli ming yillar davomida sayqal topib kelgan.



a




b




d

29-rasm. O'zbekiston badiiy kulolchiligi namunalari.
a) Samarqand; b) Rishton, G'urumsaroy; d) Xiva.



a



b




d


30-rasm. O'zbekistonning mashhur kulollari:
a) Mahkam Obloqulov; b) Abduraim Muxtorov; d) Muhiddin Rahimov.

Ular ota-onalarimizning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi.

Ko'za buyumlaridan ota-onalarimiz suv, sharbat, don mahsulotlari, yog' saqlash uchun foydalanganlar. Ular qanday materialdan (loy, yog'och, temir, tosh) tayyorlanganligidan qat'i nazar ishlatish uchun qulayligi bilan bir qatorda estetik ko'rinishlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham kulolchilik amaliy san'at sohalaridan biri sanaladi. Endilikda esa zamonaviy texnika va texnologiyalar bu vazifalar uchun qulay idishlar ishlab chiqarayotganligi bois kulolchilik, avvalo, san'at turi sifatida qaraladi. O'zbekistonning kulolchilik san'ati o'zining umumiyliigi bilan, uning turli maktablarining o'ziga xosligi bilan ham go'zaldir. Rishton, G'urumsaroy va Xonqa ustalari moviy, yashil rangli islimiy naqshlar bilan, Toshkent, Shahrissabz, G'ijduvon va denovlik ustalar esa qizil, sariq va jigarrang tusdagi ishlari bilan mashhurdirlar (29-a, b, d rasmlar). Kulolchilik san'atida amaliy shakllarning ramziy ma'no kasb etuvchi stilizatsiyalashtirilgan shakllari ham qo'llaniladi.



31-a rasm. Oftoba. Samarqand.
XVII asr oxiri.



31-b rasm. Oftoba. Qo'qon.
1976-yil.

O'zbekiston kulolchilik san'atida xivalik Raimberdi Matchonov, toshkentlik Turob Sheraliyev, Muhiddin Rahimov, Akbar Rahimov, rishtonlik Rustam Usmonov, Muzaffar Saidov, samarqandlik Mahkam Obloqulov (30-a rasm),



31-d rasm. Oftoba.

Abduraim Muxtorov (30-b rasm), Uba qishlog'idan Hamro Rahimovlar yuksak badiiy saviyadagi kulolchilik asarlari yaratganlar. O'zbekiston kulollarining mahorati haqida afsonalar, ertaklar to'qilgan, ular asosida filmlar yaratilgan («Yettinchi jin» filmini eslang).

Muhiddin Rahimov (1903–1988) (30-d rasm) toshkentlik mashhur usta kulol, O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, Hamza nomidagi Davlat mukofotining laureati, orden va medallar sohibi. Buxoro, Samarqanddagi tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlashda ishtirok etgan. Asarlari jahonning bir qator muzeylarida saqlanadi. Uning ishini o'g'li – O'zbekiston xalq rassomi Akbar Rahimov va nabiralari davom ettirmoqdalar.

Shakl va mazmun mutanosibligini amaliy san'atning kandakorlik turida ham ko'rish mumkin. Xalq ustalari tomonidan ishlangan choynak, mis ko'za, qumg'on, obdasta kabi buyumlar o'yma naqsh bilan ziynatlangan. O'zbekiston miskarlik san'atining Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Xorazm, Shahrisabz maktablari mavjud (31-a, b, d rasmlar).



32-rasm. Zargarlik buyumlari namunalari.

Shakl va mazmun mutanosibligi, unda turli ramziy shakllarni nozik ko'rinishlarda qo'llanilishini zargarlik san'atida ham ko'rish mumkin (32-rasm).

Amaliy mashg'ulotni boshlashdan avval kitobda berilgan, o'zingiz turmushda uchratgan, boshqa kitob va jurnallarda ko'rgan amaliy san'at buyumlarining tuzilishini eslang. Siz ularga qanday qo'shimcha kiritishingiz mumkinligi haqida fikr yuriting. So'ng amaliy ishga kirishishingiz mumkin.

Yaratilajak buyumning shaklini yaxshilab o'ylab ko'ring va uning variantlarini qog'ozda tasvirlab oling. Misol uchun, guldon vazifasini o'taydigan vazaning shaklini hal etishda uni qanday gullarga mo'ljallanganligi hisobga olinadi. Agar u 3–5 ta chinnigulni solib qo'yish uchun mo'ljallangan bo'lsa, uning shakli chinnigulga mos tarzda, yuqori qismi cho'ziq, og'zi ingichka bo'lgani maqsadga muvofiq. Shundagina u chinnigul bilan yaxlit joziba kashf etadi. Aksincha, poyasi kalta, tarqoq holdagi gullar uchun yapaloqsimon ko'rinish mos keladi. Har ikkala variantda ham gullarning novdasi suvga tegib turishi lozim.

Ikkinchi guruh o'quvchilari quyi sinflarda o'rgangan naqsh kompozitsiyalaridan ijodiy foydalangan holda quticha uchun naqsh kompozitsiyasini

ishlashi mumkin. Topshiriqning mohiyati, yoʻnalishi boʻyicha ustozingizning koʻrsatmalariga amal qilasiz.

Har ikkala variantdagi topshiriqlarni mustaqil ravishda davom ettirasiz, yaʼni koʻza qurigach, uning sirtiga akvarel, guash va tempera boʻyoqlarida bezak, badiiy ishlov berasiz. Quticha ustiga moslab tushirilgan naqsh kompozitsiyasi rang bilan ishlangach, bir necha bor loklanadi. Ularning har ikkisi ham kichik sanʼat asari sifatida maktab muzeyida saqlanishi yoki sovgʻa tariqasida taqdim etilishi mumkin.

Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Kulolchilik sanʼati namunalarining tarixiy va zamonaviy funksiyalari oʻrtasida qanday umumiylik va tafovutlar mavjud?

2. Oʻzbekiston kulolchilik sanʼatida qanday yoʻnalishlar (markazlar) mavjud? Ularning oʻziga xosligini nima bilan izohlash mumkin?

3. Oʻzbekistonning mashhur kulollari, miskarlaridan kimlarni bilasiz?

Mustaqil oʻrganish uchun adabiyotlar

1. T.Abdullayev, D.Faxriddinova, A.Hakimov. Maʼdanga bitilgan qoʻshiq. Oʻzbekiston xalq sanʼati. T., Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1986.

2. Л.Акунова, В.Крапивин. Технология производства и декорирование художественных керамических изделий. М., Высшая школа. 1984.

3. М.Рахимов. Художественная керамика Узбекистана. Т., 1961.

4. Oʻzbekiston xalq sanʼati. Tuzuvchilar A. Morozova va boshqalar. Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. T., 1979.

9 - MAVZU

DIZAYN SANʼATI

Topshiriq. Xonani dizayn talabi asosida jihozlash.

Material. Oq qogʻoz, qalam, akvarel va guash boʻyogʻi, moʻyqalamlar.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Dizayn sanʼati haqida maʼlumot.

2. *Amaliy qism.* Dizayn sanʼati namunasini ishlash.

Buyumlarning loyihalarini yaratuvchi mutaxassislarni dizayn ustalari, dizayn rassomlari yoki qisqagina qilib dizaynerlar deb ataydilar. Dizaynerlik sanʼati qadimdan mavjud boʻlib, rivojlanib kelgan, lekin XX asrning 20–30-yillaridan «dizayn» iborasi muomalaga kiritilgan. U inglizcha soʻz boʻlib, «chizma», «loyiha», «rasm» maʼnolarini bildiradi. Dizayn maxsus faoliyat turi, buyumlar tuzilishi, qurilishini oʻrganadigan sanʼat sohasi. Dizayn – yaratiladigan buyumga kishilar talabi, davr rivoji va texnologiyasidan foydalanib qulay, sodda, lekin arzon va goʻzal buyumlar namunasini yaratish sanʼati nazarda tutiladi. Bugungi kunda mashinalarning yangi modellari, mebel, idish-tovoq, turli dastgoh va raketalarining shakllaridan tortib, kundalik

turmushda, ba'zida e'tibor berilmaydigan, oddiy konfet qog'ozlari, markalar, poyabzalga yopishtiriladigan oddiy etiketkalar, har bir buyumning tutqichi-yu uning yuzasiga berilgan ishlov, tanlangan rangi, ishlatilgan xomashyosi — hammasi dizayner mehnatining mahsuli. Rassom — dizayner buyumni qayerda va qanday ishlatilishini bilishi, shunga qarab buyumning shakli, uning o'lchamlari, materialini tanlashi kerak. Masalan, oddiy qora qalamni olaylik. Qalam uchun tanlangan yog'och, uning o'lchami va nisbatlari hamda yozish uchun ishlatiladigan grafit dizayner tomonidan belgilanadi. Shuning uchun ham dizayner — loyihachi, psixolog, muhandis, sotsiolog, iqtisodchi sohasini tushunishi, bozor sharoitini yaxshi bilishi, yaratgan har bir buyumi raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashi kerak.

Dizayn — sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'liq. Sanoatda esa birdaniga ko'plab buyumlar ishlab chiqariladi. U ko'pchilikka — erkak va ayolga, yosh-u qariga, ziyoli va ishchiga yoqishi, ma'qul kelishi lozim. Bunga esa kuzatish, izlanish, talabni o'rganish orqali erishiladi. Mamlakatimizda dastgohlar, transport vositalari, maishiy buyumlarga bo'lgan talab va istaklarni ilmiy asosda o'rganish masalasi 1960-yillardan boshlangan. Yirik korxonalar qoshida loyihachi guruhlar ochildi, maxsus loyiha institutlari ishga tushirildi. Mustaqillikka erishgandan keyin Respublikamizda ham dizaynerlar maxsus oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tayyorlana boshlandi.

Bugungi kunda Respublikamizda dizayn san'ati o'zining yangi taraqqiyotini boshidan kechirmoqda. Mamlakatimiz dunyoga tayyor sanoat mahsulotlari bilan chiqa boshlagan davlatga aylanib bormoqda. Yangi-yangi mashinalar, dastgohlar va boshqa sanoat mollarining jahon bozorlariga chiqa boshlagani shuning dalilidir, chunki dizayn yutug'i taraqqiyot ramzi, zamon ko'zgusidir.

Amaliy mashg'ulot

Xonani dizayn san'ati talabi asosida jihozlash.

Bu mashqqa o'tishdan avval asosiy g'oyani, ya'ni xona nimaga mo'ljallangan, u yerda qanday tadbirlar bo'lishini aniqlab olishdan boshlanadi. Buning uchun, avvalo, o'zingiz ko'rgan-bilgan xonalarni bir eslab ko'ring, masalan, o'zingiz yashayotgan uydagi xonalarni kuzating, do'stlaringizning xonalarini eslang, mehmonxona, darsxona, kelinning xonasi bezatilishi va jihozini taqqoslang. Agar e'tibor bersangiz, har bir xona o'zining bajaradigan vazifasiga qarab turlicha bezatilgan va jihozlangan. Bulardan tashqari, xonalar bezatilishi ham har xil va xonadon egasining iqtisodiy ahvoli, jamiytdagi mavqei, estetik qarashlari, didini ifodalaydi, xullas, har bir odam o'zining iqtisodi va imkoniyatidan kelib chiqib xonasini bezaydi, aniqrog'i, xonasining dizayn yechimini belgilaydi.

Siz ham xona badiiy yechimini boshlashdan avval shularni hisobga olishingiz kerak. Ish boshlashda dastlab xona ichki qismi — interyerni aniqlab, undagi eshik-rom o'rinlarini, xona ichki ko'rinishini perspektiva talablari

asosida chizib olish, qarash nuqtalarni belgilab, so'ngra xona ichidagi jihozlar o'rni va hajmini shu qarash nuqtasiga nisbatan chizib boriladi va buyumlar joy-joyiga o'rnatiladi. Xona dizaynini yechishga o'tganda yana bir bor asosiy g'oyadan kelib chiqib ishga kirishish mumkin. Ish jarayonida perspektiva qonunlarini esdan chiqarmang, parallel chiziqlar qonuniga amal qiling. Dastlab jihozlanadigan va bezatiladigan xonaning perspektiv ko'rinishini chizib olib, interyer ichki qismi, bezagi va kerakli jihozlarni joy-joyiga qo'yib, qalamda tasvirini ishlab bo'lgandan so'ng rang berishga o'tishingiz mumkin.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. «Dizayn» iborasining lug'aviy mazmuni va mohiyati nimada?
2. Dizayn san'ati qanday san'at va u qachon paydo bo'lgan?
3. Libos dizayni deganda nimalar haqida o'ylaysiz?
4. O'zbekistonda dizayn san'ati qachondan rivojlana boshladi?


Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Avtomobil va avtobuslar shaklini o'rgangan holda ularning yangi ko'rinishlarini yasang va o'qituvchingiz bilan uni muhokama qiling.

Libos dizayni bilan qiziqqanlar «Milliy liboslar», «Zamonaviy liboslar» mavzuida rasm ishlab, sinfdagi muhokamaga qo'yishlari mumkin.



UCHINCHI CHORAK



10 - MAVZU

O'ZBEKISTONNING ME'MORIY YODGORLIKLARI

Topshiriq. O'zbekistonning qadimiy va o'rta asrlar me'moriy yodgorliklarini tahlil qilish.

Darsning mazmuni. Me'morlik san'at turi sifatida. Unda davlat tarixi, xalq turmush tarzi, an'alarining ifoda etilishini o'rganish.

Me'morlik – insonning har kungi hayotidan ajralmas san'atdir. Me'morlik ham san'atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy-ma'naviy mavqeini o'zida aks ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik qarashlarini hajmli shakllarda namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at haqli ravishda tarixiy voqealarning solnomasi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston zamini me'moriy obidalarga boy o'lka. Bu yerda juda qadim zamonlardan boshlab me'morlik san'ati rivojlanib kelgan. Dastlab odamlar g'orlarda yashash bilan birga yer ustiga ham turarjoylar qura boshlaganlar. Loy va turli shakldagi xom g'ishtdan foydalanib uylar qurishgan, bino devorlari, pollarni suvashgan va rang berib xonalarni bezashgan. Neolit (mil. avv. 6–4 minginchi yillar) davri so'ngiga kelib O'zbekiston yerlarida qo'rg'ontepalar qurilishi zaminida shahar va shahar-davlatlari rivojlanib bordi. Shu shahar-davlatlarda me'morlik majmualari yaratildi.

O'zbekiston me'morligining antik va ilk feodalizm davrlari ham me'moriy obidalarga boy bo'lgan. Bu davrda yangi me'moriy g'oyalar paydo bo'ldi, yirik me'morlik majmualari, mavzuli rassomlik kompozitsiyalari, mahobatli haykaltaroshlik asarlari yaratildi. Feodallarning qasr-qo'rg'onlari, boy zodagonlarning shahar va shahar tashqarisidagi qasrlari vujudga keldi,

yangilandi. Bu davr me'morligining o'ziga xos tomonlari qo'rg'on-qasrlar — ko'shklar qurilishida sezilarli bo'ldi. Bu qo'rg'on-qasrlar avvalgi badiiy-madaniy markazlardan birmuncha chekkada bo'lib, asosan, dehqon-feodallarning turarjoyi sifatida paydo bo'ldi. Bu qo'rg'onlar mustahkam devorlar bilan o'ralgan. Shu qo'rg'on-qasrlar atrofida keyinchalik turarjoylar, bozorlar paydo bo'la borgan. Vaqt o'tishi bilan ana shu yerlar ham qalin devorlar bilan aylantirib o'rab olina boshlangan.

O'zbekiston me'morlik san'atining yangi bosqichi rivojlangan feodalizm davriga to'g'ri keladi. Shu davrda O'zbekiston jahonga ajoyib olimlarni berdi. Me'morlikda yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar yuzaga keldi. Shahar hayoti rabotga ko'chdi. Shu yerda gavjum bozorlar paydo bo'ldi. Savdo qatorlari yaqinida esa hunarmandlar jamoalari shakllana bordi. Shaharda va undan tashqarida jamoat va turarjoylar ko'plab qurildi. Bu qurilishlarda asta islom dini bilan bog'liq me'morlik shahar qiyofasini belgilashda muhim o'rin egallay boshladi. Masjid qurilishi boshqa dinlar bilan bog'liq diniy binolar qurilishiga chek qo'ya boshladi. Shu davrda masjid tiplari yuzaga kelib, juma masjid va guzar masjidi hamda shahardan chekkada namozgohlar barpo etildi. Masjid ichida qibla tomonda — mehrob yonida minbar qurilgan. Namozgohga chiqish uchun minora ishlanishi ham shu davr mahsulidir. O'quv dargohlari — madrasalar qurilishi ham jonlana boshladi. Xonaqohlar alohida masjid-madrasalarda, ularning yaqinida qurilgan. Shunday xonaqohlar Samarqand, Buxoroda ko'plab uchraydi. Savdo chorrahalarida Chorsu savdo gumbazlari, shahar darbozalari oldida karvonsaroylar hamda shahar va undan tashqarida maqbaralar qurilishi shu davr me'morligining o'ziga xos yangi yo'nalishlari mahsuli edi. Ayniqsa, maqbaralar qurilishida bezak san'ati yutuqlari o'z ifodasini topdi. Qurilishda xom g'isht, paxsadan tashqari pishiq g'isht va alebastr qorishmalaridan foydalanish ham muhim bo'ldi. Uchli toqilar ham me'morlik san'ati o'zgarishlarini belgiladi. Minora qurilishi ham odat tusiga kirib kela boshladi.


Temur va Temuriylar davrida me'morlik san'ati nihoyatda rivojlandi. Bu davrda me'morlikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik majmualari muhim o'rinni egallaydi. Me'morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo me'morligida avval ham bo'lgan, lekin XIV asrga kelib bino ichki va, ayniqsa, tashqi pardoziida bu uslub alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli koshinlar XIV asr oxiridan keng tarqaldi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o'z tasarrufidagi yerlarda ham hashamatli binolar qurirdi.

Temur va Temuriylar davri me'morligini Shohizinda me'morlik majmuasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Afsonaviy Afrosiyob yonbag'riga joylashgan bu majmua XI — XII asrlarda mavjud maqbaralar o'rniga qurilgan, bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas sajdagoh joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra bu yerda avliyo Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo u shu yerda tirilib yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha o'sha yerda yashashga qaror qilgan.


«Shohizinda» — «tirik shoh» nomi shu yerdan olingan. Hozirgi Shohizinda majmuasi ko‘rinishi XIV — XV asrlarning birinchi yarmida shakllangan. U 1434 — 1435-yillarda Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ulug‘bek davrida me‘moriy san‘atda qator nodir yodgorliklar barpo etildi. Ulug‘bek madrasasi, rasadxona shular jumlasidandir. Ulug‘bek rasadxonasi uch qavatli bo‘lib, ichki qismi rasmlar bilan bezatilgan. Unda tabiat manzaralari keng o‘rinni egallagan.

Shayboniylar davrida Buxoro Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biriga aylanadi. Shaharda Temuriylar davrida qurilgan binolarga o‘xshash hashamatli binolar qad ko‘tardi. Peshtoqlari bir-biriga qaratib qurilgan qo‘sh madrasalar qurildi. Buxorodagi markaziy ansambllardan Katta Kalon Jome‘ masjidi va Mir Arab madrasasi ham shu uslubda barpo etildi. Imonqulixon xizmatida bo‘lgan Yalangto‘sh nomli amaldor Samarqanddagi katta qurilishlarga homiylik qiladi. Uning mablag‘i hisobiga Registon maydoni to‘liq shakllanadi. U avval qurilgan Ulug‘bek madrasasi qarshisiga mahobatli Sherdor va uning yoniga Tillakori madrasalarini qurdiradi. XIV asrda Buxoro yaqinidagi Chor-Bakr majmuasi, Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi barpo etildi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xivaning mashhur yodgorliklari o‘zining tugallangan ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar hisobiga shahar ko‘rki ochiladi. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Tosh Hovli kabi yodgorliklari bugungi kunda bezakdorligi hamda go‘zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. Islomxo‘ja minorasi shaharning ajoyib me‘morchilik yodgorligi hisoblanadi.



33-rasm. Tuproqqal‘a.



34-rasm. Somoniylar maqbarasi.

Xorazm davlati miloddan avvalgi IV asrdan boshlab o'z yuksalishining yangi bosqichiga ko'tarila boshlaydi va mil. avv. II – I asrlarda esa o'zining gullagan davrini boshidan kechiradi. Tuproqqal'a shu davrning muhim yodgorligidir (33-rasm). Qal'a qalin devor bilan aylantirilib o'rab chiqilgan va atrofidan zovur o'tkazilgan. Asosiy darvozadan shahar ichkarisiga ketgan keng va to'g'ri yo'l shaharning bosh maydoni va u yerda mavjud bo'lgan sajdagoh va hokim saroyiga olib borgan. Qal'adagi saroy va ibodatxonalar



35-rasm. Samarqand. Go'ri Amir maqbarasi.

bezakka boy va hashamatli qilib qurilgan bo'lib, uni bezashda rassomlik va haykaltaroshlik san'atidan foydalanilgan.

Rivojlangan feodalizm davrining nodir yodgorligi Somoniylar maqbarasidir (34-rasm). Bu maqbara haqli ravishda jahon me'morlik san'atining nodir yodgorligi hisoblanib, dastlab o'zining sodda va tuzilishining aniqligi, nisbatlarining nihoyatda mutanosibligi va me'moriy shakl devorining nihoyatda nafis holda bir-biri bilan uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib (7,20 x 7,20), to'rt tomonida arkli eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga biroz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtni turli holda taxlanishi hisobiga badiiylashtirilgan. G'ishtning goh yon, goh burchagi bilan qo'yilishi yuzada yorug'-soya o'yinini oshirib, uni xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. Bu yorug'lik-soya o'yini esa quyosh nurining o'zgarishi bilan turlanib boradi va binoga har safar qaytarilmas joziba beradi. Binoning kubsimon qismi va uning ustiga o'rnatilgan gumbaz bir-biri bilan uzviy va mustahkam bog'langan. Ularning uyg'unligi va mustahkam turishi binoga alohida musiqaviy ohang kiritgandek bo'ladi. Biroz mungli ko'ringandek bino abad uyqudagilar uchun nihoyatda sokin va mungli sukut saqlayotgandek tuyuladi.

Buxorodagi Kalon masjidi minorasi (balandligi 60 m, O'rta Osiyodagi eng baland minora) g'ishtining badiiy imkoniyatlari bino tashqi bezagini belgilashda muhim rol o'ynagan. Aslida g'isht minora yuzasi naqshini tashkil etuvchi birdan-bir element bo'lib qolgan. Ularning taxlanishi va turish holati hisobiga yuza o'ziga xos ko'rinish va latofat kashf etgan.

O'rta asr me'morligining haqiqiy durdonasi bu Temuriylar maqbarasidir (35-rasm). Bino sodda me'morlik shakllardan — sakkiz qirrali asos, silindrik baraban va qirrali ko'k-moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilva. Uning ichki devorlari marmar bilan pardozlangan. O'yma va rangli, shuningdek, oltin suvi yuritilgan naqshlar bino ichki qismiga alohida fayz bergan.

11 - MAVZU

SHARQ ME'MORLIGI

Topshiriq. Sharqona me'moriy inshootlar tasviri ishtirok etgan kompozitsiya ishlash.

Material. Oq qog'oz, qalam, o'chirg'ich, akvarel bo'yoqlari, rangli pastel qalamchalari.


Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Sharq me'morligining o'ziga xosligi haqida muxtasar ma'lumot berish.

2. *Amaliy qism.* Turli texnikada (qalam, pastel, akvarel) me'moriy kompozitsiya ishlash.

Dunyo xalqlarining me'morchiligi — turarjoy va jamoatchilik binolari, saroylar va boshqa turdagi inshootlarning tashqi va ichki ko'rinishlari, konstruktiv tuzilishi va shu kabi jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu, avvalo, har bir xalqning turmush tarzi, tarixiy an'analari, mahalliy iqlimiy sharoitlariga asoslanadi.

O'zbekiston me'morligi namunalari o'ziga xos tashqi va ichki ko'rinishlari, betakror bezaklari bilan dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. «O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari» mavzuidagi darsda siz bunga amin bo'ldingiz. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent va Qo'qon kabi shaharlardagi qadimiy me'moriy obidalar Sharq me'morligining eng yorqin namunalari hisoblanadi.

Sharq me'morchiligining yana bir o'ziga xos jihati — ularning peshtoqlari, devorlari, minoralarini turli naqshinkor bezaklar, arabiy yozuvlar bilan ziynatlanganligidadir. Samarqanddagi Registon ansamblining Sherdor madrasasi peshtoqida real tasvir (yo'lbars, quyosh, odam qiyofasi) aks ettirilgan (36-rasm) bo'lsa, boshqa obidalarda islmiy va girix usulidagi naqshlar, suls uslubida bitilgan yozuvlar tushirilgan. Ularning barchasini diqqat bilan kuzating. O'zingiz istiqomat qiladigan hududdagi me'moriy yodgorliklar va ularning bezaklarini eslashga harakat qilib ko'ring. Bu ko'rinishlar siz ishlaydigan sharqona me'moriy ko'rinishning bir qismi (fragmenti) uchun mavzu bo'lishi mumkin. Me'moriy mavzuda rasm ishlashda ularning shakli, bezagi binoning ko'rinishiga mosligiga, binoning esa atrof-muhitga monandligiga e'tibor qiling. Shundagina siz ishlagan me'moriy ko'rinishdagi tasvir hayotiy, ishonchli chiqadi.



36-rasm. Samarqand. Sherdor madrasasi.

Amaliy faoliyatni boshlashdan oldin kitobdagi illyustratsiyalar, shuningdek, Lev Burening «Samarqand. Registon», «Buxorodagi choyxona», Pavel Benkovning «Sharqona ko'cha», «Chor Minor masjidi», Rashid Temurovning «Bibixonimda bahor», «Samarqand», Aleksey Isupovning «Shohizinda», Baxtiyor Boboyevning «Sharqona manzara» asarlarining reproduksiyalari va O'zbekistonning qadimiy shaharlariga bag'ishlangan albomlarni jamoa bo'lib ko'ring va ularni o'zaro muhokama qiling. Bu jarayon sizga bo'lajak kompozitsiyangiz uchun mavzu topishga yordam beradi. Olgan taassurotlaringiz asosida Sharqona me'moriy ko'rinishning sizga manzur bo'lgan variantlarining eskizlarini ishlab olgach, ular asosida yaxlit kompozitsiya tuzing va uni akvarel bo'yog'ida yoki rangli pastelda bajaring.

Me'moriy ansambl fragmentini ishlashda jamoaviy ish bajarish, unda bir necha o'quvchi bajargan ishlardan bir butun me'moriy ansambl kompozitsiyasini tuzish mumkin.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Me'moriy ansambl nima?
2. Me'moriy ansambl fragmenti iborasining ma'nosini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston hududida qanday me'moriy ansamblar bor? Ularni sanab chiqing.
4. O'zbekistondagi tarixiy-me'moriy obidalarning peshtoqlari, minoralari, devorlari qanday bezatilgan?

12 - MAVZU

MEN ISTAGAN SHAHAR

Topshiriq. Qog'ozdan me'moriy ansamblni qurish-yasash (jamoa ishi).

Material. Qog'oz, karton, qaychi, pichoqcha, kley, chizg'ich, sirkul, qalam, akvarel va guash bo'yoqlari, mo'yqalamlar.


Darsning mazmuni. Qog'oz, kartondan me'moriy ansambl yasash.

O'lkamiz qadimiy me'morchilik yodgorliklariga juda boy. Siz Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz, Qarshi kabi shaharlarda qadimiy me'morlik ansamblari mavjudligini bilasiz. Ular orasida Toshkent va Buxoro shahridagi Ko'kaldosh madrasalari, Samarqand shahridagi Registon (Ulug'bek, Tillakori va Sherdor madrasalari) me'moriy ansambl, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Qo'qondagi Xudoyorxon O'rdasi jahonga mashhurdir. Ularning ayrimlarini, xususan, Samarqand shahridagi Bibixonim masjidining yaratilishi tarixiga oid rivoyatlar ham mavjud. Siz ularni borib ko'rgansiz yoki suratlarini tomosha qilgansiz. Me'morlik ansamblari, odatda, yaxlit binolar ko'rinishida qurilgan. Ular, asosan, minoralar, peshtoqlar, gumbazlar, arklar, panjaralar va shu kabilardan tashkil topgan. Bunday me'morlik obidalari ichida, odatda, madrasa va masjid ham qurilgan. Ularda ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar o'tkazilgan. Shu bois mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonalar, talabalar yashaydigan hujralar bo'lgan.


Topshiriq jamoa ishi bo'lganligi sababli, me'morlik ansamblining ayrim qismlarini alohida-alohida yasab, so'ng birlashtirish mumkin. Siz namunalarda ko'rsatilgan me'morlik ansamblaridan birortasini tanlab, uning maketini ishlashingiz mumkin. Buning uchun qalinroq qog'oz, karton, qaychi, yelim, pichoqcha, chizg'ich va shu kabi ish qurollari kerak bo'ladi. Dastlab o'zingizga ma'qul bo'lgan qismlarni ajratib oling. Bular alohida-alohida yasaladigan minoralar, peshtoq, gumbaz, panjara va shu kabilar bo'lishi mumkin.

Minora, asosan, yaxlit qog'ozdan yasaladigan kesik konussimon ko'rinishdagi alohida qism. Uning ustida gumbazcha, arka joylashtiriladi yoki ochiq qoldiriladi.

Minora quyidagi tartibda yasaladi: dastlab katta qog'oz sirtiga minoraning 37-a rasmdagi yoyilmasi chiziladi va qirqib olinadi. Qog'ozning bu bo'lagiga me'moriy obidalarga xos bezak ishlanadi. Uni akvarel yoki guash bo'yog'ida bajariladi.



a



b

37-rasm. Minora maketini yasash:
a) yoyilmasi; b) tayyor holati.


Yoyilmaning sirtiga berilgan bezak bo'yog'i qurigach, ularni o'rab, konussimon ko'rinishga keltiring. So'ng, yelimlab yopishtirib qo'ysangiz 37-b rasmda ko'rsatilgan minoraning asosiy ko'rinishi hosil bo'ladi. Endi uning yuqori qismiga gumbazcha, arka o'rnatishingiz mumkin. Gumbaz, odatda, ko'k rangga bo'yaladi. Gumbazning yuqori nuqtasidan pastga biroz kengayib ketuvchi qabariq yo'lakchalarni birinchi bergan rangingizdan to'qroq va ochroq rangda yorug'-soya qoidalari asosida berib chiqsangiz, gumbazingiz qabariqsimon chiziqlardan iborat bo'lib ko'rinadi.

Endi me'morlik ansamblining o'rtasidagi peshtoq qismini yasashga o'tamiz. Uni tayyorlash tartibi 38-a rasmda ko'rsatilgan.

Bunda chizmada ko'rsatilgan shartli belgilarga rioya qilgan holda peshtoq yoyilmasi chizib olinadi. So'ng qir qiladigan, buklanadigan joylarini belgilab chiqasiz. Ortiqcha qog'oz bo'laklarini qir qib olib tashlang. Endi tayyor yoyilmani yig'ishga kirishing. Binoning peshtoqi bezagiga tayyor holdagi material, jurnallarda chiqqan, alohida holdagi naqsh namunalaridan ham foydalanish mumkin.

Endi tayyor bo'lgan me'morlik ansamblining bo'laklarini 38-b, d rasmlarda ko'rsatilgandek terib chiqing. Bu ko'rinish sizga qaysi me'morlik ansamblini eslatyapti?

Ana shu usullarni qo'llagan holda sinfdoshlaringiz bilan o'zingiz istagan shaharni loyihalashtirib, maketini ishlashingiz mumkin. Bu afsonaviy qasr, zamonaviy bino bo'lishi mumkin.



38-rasm. Sharqona bino peshtoqini yasash:
a) peshtoq yoyilmasi; b, d) sharqona me'moriy ansambl maketlari.


Me'morlik ansamblining tashqi ko'rinishi haqiqiyisiga o'xshash bo'lishi uchun ularning sirtiga dekorativ naqshlar ishlashingiz kerak bo'ladi. Buning uchun qadimiy me'morlik obidalari sirtidagi naqsh kompozitsiyalari va ranglarini diqqat bilan ko'rib chiqing. Ularning namunalarini ishleng. So'ng tayyor maket sirtiga naqsh ishlashga o'tishingiz mumkin. Agarda rangli qog'ozlar va tayyor naqsh namunalarini topsangiz, ularni maket sirtiga yopishtirib qo'yishingiz ham mumkin. Odatda, ansambl sirtlari yo'lsimon naqshlar bilan bezatiladi. Ayrim hollarda esa katta o'lchamdagi yaxlit naqsh kompozitsiyalaridan foydalaniladi.

Me'moriy ansambl maketlari zamonaviy ko'rinishlarda ham yasalishi mumkin. Bunda katta o'lchamlarda qurilgan ko'p qavatli binolar, muzeylar va shu kabi binolarning ko'rinishlarini tanlashingiz mumkin. Masalan, Tarix, Temuriylar tarixi Davlat muzeylari shular jumlasidandir.

Qadimiy me'morlik ansamblarini zamonaviy binolar bilan solishtirib ko'ring. Ular orasida o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlang.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qadimiy me'morlik ansamblari nima maqsadlarda qurilgan?
2. Me'morlik ansamblarining qurilishiga oid qanday rivoyatlarni o'qigansiz? Ulardan bilganlaringizni sinfdoshlaringizga aytib bering.
3. Qadimiy me'morlik obidalari qanday qismlardan tashkil topgan?
4. Zamonaviy va qadimiy me'morlik o'rtasidagi o'xshash va farq qiluvchi jihatlarni so'zlab bering.
5. Qaysi mashhur qadimiy va zamonaviy binolarni hamda ularning qurilish tarixiga oid nimalarni bilasiz?
6. Me'morlik obidalarini qurganda gumbaz katta o'lchamda bo'lishining asosiy sababi nimada?



39-rasm. Zamonaviy bino maketi.

Topshiriq. Ko'p qavatli binolarning maketlarini qurish juda oson. Buning uchun kattaroq o'lchamdagi karton qutilardan foydalanishingiz mumkin. Ularning sirtiga biror rangli qog'oz yopishtirsangiz, binoning asosiy ko'rinishi hosil bo'ladi. Endi ularning sirtiga boloxonalar, derazalar va eshiklar qirqib, yopishtirib chiqsangiz bo'ldi (39-rasm).

13 - MAVZU

ME'MORIY MANZARA

Topshiriq. Turli kayfiyat va holatdagi me'moriy manzara ishlash.

Material. Oq qog'oz, qalam, o'chirg'ich, akvarel bo'yog'i, mo'yqalamlar.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Rassomlarning me'moriy manzaraga oid asarlari bilan tanishish. Me'moriy manzarani tahlil etish.

2. *Amaliy qism.* Akvarelda turli kayfiyat (bulutli kun, charog'on kun) va holatdagi (tong, oqshom va h.k.) manzara ishlash.

Tasviriy san'atning tur va janrlari ichida manzara janri tabiat va inson munosabatlari, kayfiyatlarini tasvirlashda keng imkoniyatlarga ega. Oltinchi sinfda o'tilgan darslarda siz bu haqda tasavvurga ega bo'lgansiz. Manzaralar ham tabiat, insonlar kabi turli ko'rinish va kayfiyatga ega bo'ladi. Ular charog'on kun, bulutli kun, quyoshli oqshom, yomg'ir va qor, bo'ronlarni tasvirlash, shahar manzarasi, qishloq manzarasi, tog' manzarasi ko'rinishida bo'lishi mumkin. 11-mavzuda siz tanishgan tasviriy san'at asarlarining namunalari, undan tashqari, Ivan Shishkin, Isaak Levitan, Aleksey Savrasov, O'rol Tansiqboyev, Nikolay Karaxan, Rashid Temurov, Abduvali



40-rasm. Me'moriy manzara varianti.

Mo'minov, Anvar Mirsoatovlarning manzara janridagi asarlarini tomosha qilish va tahlil etish sizga me'moriy manzara elementlarini belgilashga zamin yaratadi. Ularda qishloqning past-baland uylari, tog'-u adirlar, daryo va jilg'alar, uzoq-yaqinda tasvirlanishi mumkin bo'lgan me'moriy inshoot ko'rinishlari, daraxtlar va boshqa elementlar tasvirini ko'rishingiz mumkin.

Amaliy tasviriy faoliyatga kirishish oldidan o'z variantlaringizning eskizlarini ishlab oling. Bu eskiz har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Me'moriy manzara varianti 40-rasmda ko'rsatilgan.

Yodingizda tuting, barcha manzaralarning bosh g'oyasi, mavzusi — inson va tabiat uyg'unligidir.


Endi bir rassomning me'moriy manzara janridagi ikki asarini tahlil etib ko'ramiz. Bular rassom Rashid Temurovning «Bibixonimda bahor» (41-rasm) va «Samarqand» (42-rasm) asarlari.



41-rasm. R.Temurov. Bibixonimda bahor.

Birinchi asarning bosh mavzusi bir obyekt — Bibixonim masjidi. Asarning o'rta planida uning ko'p qismi nurab tushgan asosiy arka tasvirlangan. U kartina sathining deyarli yarmini egallagan. Orqa planda masjidning gumbazli qismi tasvirlangan. Uning orqa planda ekanligini bildirish uchun rassom havo perspektivasidan unumli foydalangan. Asarning nomlanishidan ma'lumki, bosh mavzu bahor faslini Bibixonim maydonidagi tarovatini tasvirlash. Shu bois rassom asar markazida me'moriy obidaning mahobatiga monand tarzda salobatli daraxtlarning gullagan holatini tasvirlagan. Bu bilan rassom yana bir tarixiy haqiqatni eslatib qo'yimoqchi bo'ladi, ya'ni Bibixonimga har yili bahor kelaveradi, yillar ketidan yillar o'taveradi. Ajdodlarimiz yaratgan buyuk tarixiy me'moriy obidalar esa asrlar osha salobat to'kib turaveradi.

Me'moriy obida va daraxtlarning mahobatini yanada yaqqolroq tasvirlash uchun rassom odamlarning figuralaridan foydalangan. Odamlarning gavdasiga nisbatan olinadigan bo'lsa, Bibixonimning o'ta mahobatli ekanligi ayon bo'ladi.



42-rasm. R.Temurov. Samarqand.

Rassom odamlarni tasvirlash orqali obidani ziyorat qilish uchun dunyoning turli burchaklaridan muntazam tarzda odamlar kelib turishini ta'kidlaydi.

Rassom o'zining ikkinchi asarida boshqacha tasvir usulini tanlagan. Ufq chizig'ini yuqoriga ko'tarish orqali kartina tekisligida me'moriy obidalarni ko'proq tasvirlanishiga erishgan. Ularning tasvirida, ya'ni detallarning ishlanishida o'ta aniqlikka alohida e'tibor qaratilmagan. Chunki ularning aksariyat qismi o'rta planda tasvirlangan.

Biz siz bilan bir rassomning ikki asari misolida me'moriy manzara ko'rinishining ikki xil yechimini ko'rdik. Endi o'zingiz ko'rgan va eslab qolgan me'moriy manzaralarning turli ko'rinishlari haqida o'ylab ko'ring. Amaliy mashg'ulotga kirishish oldidan o'z variantlaringizning eskizlarini ishlab oling. Bu eskiz shahar yoki qishloq manzarasi, qadimiy yoki zamonaviy shahar, ularning sintezi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Quyoshning botish chog'idagi manzara binolarning faqat siluetlarini tasvirlovchi ko'rinishlarini ishlash ham nisbatan osonligi, ayni paytda, uning emotsional ta'sirchanligining kuchliligi bilan sizni qiziqtirishi mumkin. Agar bu rasmlar sizni qiziqtirgan bo'lsa, shu usulda manzara ishlashingiz mumkin.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Manzaraning bosh g'oyasi nima?
2. Manzarachi rassomlardan kimlarni va ularning qaysi asarlarini bilasiz?
3. Rassom Rashid Temurovning «Bibixonimda bahor» hamda «Samarqand» asarlarining tasviriy-kompozitsion yechimining umumiyliigi va farqi nimadan iborat?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Н.У. Абдуллаев. Пейзажная живопись Узбекистана. Т., Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма. 1978.
2. Урал Тансыкбаев. Воспоминания, документы. Т., Издательство литературы и искусства им. Г.Гуляма. 1988.
3. Урал Тансыкбаев. Альбом. Ленинград. «Аврора». 1977.
4. Н.Каримов. О'рол Tansiqboyev. Т., 1985.

TO'RTINCHI CHORAK



14 - MAVZU

KITOBAT SAN'ATI

Darsning mazmuni. Kitobat san'ati haqida muxtasar ma'lumot berish.

Insonning butun umri davomida eng ko'p hamrohi bo'ladigan buyum — bu kitobdir. U bizga bilim, dam olishda, bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazishda, biror yordamga muhtojlik sezganimizda yordamga keladi. Bir so'z bilan aytganda, kitob insonning ma'naviyatini o'zida mujassam etadi.

Kitobat san'ati — Sharq madaniyatining eng qadimiy va nodir turlaridan biri. Kitob Sharqda qadimdan izzat-ikromda bo'lgan. Unda Vatan va millat tarixi, ilm-fan sirlari, kishilarning falsafiy va estetik qarashlari, turmush tarzi, orzu-umidlari o'z aksini topgan. Sharq kitoblarini sharqona donolik, ma'naviy barkamollik timsoli sifatida e'tirof etadilar. Sharq kitobat san'atining yana bir qimmatli jihati shundaki, unda xattot, naqqosh, rassom, muqovasoz, zarhal harf yozuvchi (chizuvchi) mutaxassislarning yuksak badiiy mahoratining sintezi tufayli kitoblar yuksak badiiy saviyadagi asar darajasiga yetkazilgan. Shu bois ham jahonning eng yirik muzey va kutubxonalari (Sankt-Peterburgdagi Ermitaj, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyi, Londondagi Britaniya muzeyi, Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi va boshqalar)da Sharq kitobat san'atining nodir namunalari saqlanadi.

Bugungi kunga kelib kitoblarning barchasi deyarli bir xil shaklga ega. Biroq qadimda ularning shakli turli-tuman bo'lgan. Ular asrlar osha shakllanib, sayqal topib kelgan. Bu jarayonda kitobat san'atining boshqa sohalari bilan bir qatorda rassomning mehnati katta bo'lgan. Kitobda qo'llaniladigan

harf turlari, uning nisbatlari, ko'rinishlari, matn teriladigan yuzaning kompozitsiyasi va boshqa jihatlar qachonlardir rassom tomonidan ishlab chiqilgan. Shuning uchun kitob bezovchi rassomni sozandaga o'xshatishadi. Sozanda bastakorning g'oyalarini mahorat bilan ijro etgani kabi rassom muallifning fikrlarini o'quvchiga estetik zavq baxsh etuvchi shaklda yetkazishda hal qiluvchi figuradir.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimiy kitoblardan biri — Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» eramizdan oldingi VII asrning oxiri — VI asrning birinchi yarmida yaratilgan bo'lib, u 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan 21 kitobdan iborat bo'lgan. Uning 5 kitobi saqlanib qolgan.

O'zbek xalqining dunyoga mashhur san'at turlaridan biri kitobat san'ati ekanligi uning boy tarixidan dalolat beradi. Endilikda Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarovlar tomonidan badiiy sayqal berilgan kitoblar nodir san'at asari darajasida millionlab insonlarning ma'naviyatini boyitishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston kitobat san'ati namunalari endilikda eng zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan bosmaxonalarda nashr etilmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy kitobat san'ati misolida «Temur davrining me'moriy kakhkashoni», «Ma'danga bitilgan qo'shiq», «O'zbekiston naqshu nigorlari», «O'zbekiston xalq san'ati», «Musavvir va kitob», «Sharq adabiyoti va san'ati» nomli kitoblar, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari haqidagi albomlar o'zining yuksak badiiy darajasi, sifati bo'yicha klassik namuna sirasiga kiradi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Sharq kitobat san'atining nodir namunalari jahonning qaysi muzeylarida saqlanadi?
2. Kitob shaklidagi eng qadimiy manbalardan, yodgorliklardan qaysilarini bilasiz?
3. Qadimda qo'lyozma kitoblarini badiiy bezashda kimlar ishtirok etgan?

O'ZBEKISTON KITOB GRAFIKASI SAN'ATI

Darsning mazmuni. Kitobat san'atining xususiyatlari, O'zbekiston kitob grafikasi san'atining tarixi, kitob bezovchi rassomlar haqida ma'lumot berish.

Grafika tasviriy san'atning eng ommalashgan turi. San'atning bu turi bilan katta-yu kichik shug'ullanadi. Chunki u hammabop. Kimdir o'z fikrini bayon etish uchun, kimdir tasavvurlarini oydinlashtirish uchun, yana kimdir xayol surib o'tirib qandaydir tasvirlar chizadi. «Grafika» so'zi (grekcha) «graphike» — «yozayapman», «chizayapman» ma'nosini anglatadi. Uning hammabopligi tasviriy san'atning rangtasvir va haykaltaroshlik turlari kabi maxsus sharoitni talab etmaydi. Uni qora tushda, oddiy qalam, flomaster yoki ruchkada daftar varag'i, oq qog'ozga ishlash mumkin. Faqat professional grafik rassomlarga badiiy ustaxona sharoitida ijod qiladilar.

Ayni paytda, grafika san'atining o'ziga xos murakkabliklari ham mavjud. Bir qarashda juda oddiy tuyulgan bu san'at turi aslida undagi shartliliklar tufayli murakkabdir. Unda bir rang bilan, odatda, qora rang bilan chiziqlar vositasida oq qog'oz sathida rang va uning tushlari, borliqdagi voqea va hodisalar tasvirlanadi.

Grafika san'atining dastgoh grafikasi, kitob, gazeta-jurnal grafikasi, amaliy grafika va plakat kabi turlari mavjud. Shular ichida insonlar hayotiga eng chuqur kirib borgani kitob grafikasi san'atidir.

Kitob grafikasi – kitoblarga badiiy bezak berish san'atidir. Kitoblar o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra bezatiladi. Shu bois darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, ilmiy-ommabop kitoblar, lug'atlar va ensiklopediyalar, badiiy adabiyotlarga ishlangan bezaklar bir-biridan farq qiladi. Kitob grafikasi san'atining imkoniyatlari adabiy asarlarni badiiy bezashda to'la-to'kis namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek kitob grafikasi san'ati XIX asrning oxirlarida shakllana boshlagan. O'rta Osiyo bir paytlar mashhur xattotlar, naqqoshlar, musavvirlar, muqovasozlarning kitob ziynatlashda ulkan maktabi bo'lgan. XIX asrning oxiri — XX asrning boshlariga kelib kitob ishlab chiqarish san'at sohasidan industriyaga aylanib bordi. Yevropadan avvaliga O'rta Sharq mamlakatlariga, XIX asrning 60-yillarida Turkistonga yevropacha kitob nashr qilish texnikalarining kirib kelishi, shuningdek, yevropalik kitob bezovchi rassomlarning bu yerda qo'nim topishi asrlar davomida shakllangan an'analarining inqirozga uchrashiga olib keldi. Kitoblarni texnika yordamida nashr etishni yo'lga qo'yilishi mahsulotlarning badiiy darajasi emas, balki soniga e'tibor berishni taqozo etdi. Toshkent, Xiva, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Marg'ilonda litografiya usulida kitob chiqarish uskunalarini ishga tushirilishi Turkiston va Yevropada nashr etilayotgan kitoblarni amalda bir xil bo'lishiga olib keldi. Shu davrga kelib jamiyatning kitobga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirish uchun uni industrilashtirish tabiiy holga aylandi.

O'zbek kitob grafikasi san'atining milliy an'analarini tiklash va rivojlantirishda o'z ijod yo'lini XX asrning 30- yillarida boshlagan Iskandar Ikromovning faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi.

Iskandar Ikromov (43-rasm) (1904 – 1972) – O'zbekiston xalq rassomi, taniqli kitob naqqoshi 1904-yilda Toshkent shahrining Eski Jo'va mavzeida tavallud topgan.

Bo'lajak rassomning otasi Shoikrom Qori o'ta taqvodor kishi bo'lsa-da, o'g'lidagi iqtidorni ko'rib uni 1922 – 1924-yillarda Toshkentdagi Turkiston o'lka badiiy bilim yurtida shug'ullanishiga imkoniyat yaratib berdi. Keyinchalik u mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning tavsiyasiga ko'ra Moskva Davlat Oliy badiiy-texnika ustaxonasi (BXUTEMAS, 1924 – 1925)da va Sankt-Peterburg Badiiy akademiyasining Badiiy san'at texnikumida (1925 – 1929) rassomlik kasbini egallab, Toshkentga qaytdi.



43-rasm. O'zbekiston xalq rassomi Iskandar Ikromov.

Uning iqtidorining to'la-to'kis namoyon bo'lishida Abdulla Qodiriy, G'ozir Yunus, Hodi Zarifov, G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Sulaymonov kabi adiblar bilan bo'lgan muloqotlar muhim o'rin tutdi. Rassomning aynan kitobat san'atini tanlashi o'z davrining taraqqiyparvar ziyolisi, amakisi Shoismatillaning kitob do'konida o'tkazgan damlari, u yerda amakisining Baku, Qozon, Orenburg, Ufa kabi shaharlardan keltirgan gazeta, jurnal, darslik, romanlar va boshqa adabiyotlarni ko'rib ilhomlanganligi bilan bog'liq.

Iskandar Ikromov o'z ijodiy faoliyatida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek kabi allomalarning asarlariga badiiy ishlov bergan. 1959-yilda Alisher Navoiyning «Lirika»siga ishlagan badiiy bezaklari uchun Germaniyaning Leypsig shahrida o'tkazilgan xalqaro kitob ko'rgazmasida bronza medaliga sazovor bo'lgan.

Rassom ijodiy ish bilan bir qatorda jamoat ishlarida ham barakali mehnat qildi. Bir necha yil O'zbekiston rassomlar uyushmasiga rahbarlik qildi, uzoq yillar davomida «O'zdnashr»ning bosh rassomi, bir qator komitet va kengashlarning a'zosi bo'lgan. Kitob, jurnal va gazeta grafikasiga oid o'quv va metodik qo'llanmalar yaratdi. Uning ijodi haqida Chingiz Ahmarov, M. Krukovskaya, Mirmuhsin, Oybek, A. Sidorovlar yozishgan. Rassom ijodining ahamiyatli tomoni shundaki, u Sharq kitobat san'atining qadimiy tarixiy an'analarini tiklash va rivojlantirish, unda milliy naqsh elementlarini zamonaviy kitobat san'atida qo'llash va umuman, XX asr milliy kitobat san'atining shakllanishida ibratli ijod namunalari namoyon etdi.

O'zbekiston kitob grafikasi san'atining rivojiga XX asrning 40 – 50-yillarida Usto Mo'min (Nikolayev), Vladimir Kaydalov, Chingiz Ahmarov, Mixail Reyx, 60 – 70-yillarga kelib esa Qutlug' Basharov, Telman Muhamedov, Ivan Kiriakidi, Anatoliy Bobrov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar. Ayniqsa, Telman Muhamedovning ijodida Sharq miniatyura san'atining an'analari o'ziga xos talqinda davom ettirildi.

Muhamedov Telman Yaminovich (1934 – 1976) (44-rasm) – 1934-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1968-yilda Ostrovskiy nomidagi Teatr va rassomlik san'ati institutining rassomlik fakulteti (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti)ni tamomlagan. Kitob bezovchi rassom sifatida ko'plab kitoblarni badiiy bezadi. Yumorga boy karikaturalari



44-rasm. Kitob bezovchi rassom Telman Muhamedov.

«Mushtum» jurnalida muntazam ravishda e'lon qilib borilgan. O'z asarlari bilan bir qator xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etgan. 1974-yilda Butunittifoq Xalq Xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining bronza medaliga sazovar bo'lgan. 1968-yilda Rassomlar uyushmasining a'zoligiga qabul qilingan. O'zbek xalq ertaklari, Afandi latifalari, G'afur G'ulomning «Shum bola», Mirmuhsinning «Me'mor» asarlariga ishlagan illyustratsiyalarida rassomning iqtidori yaqqol namoyon bo'lgan. Ularda chuqur yumoristik ruh bilan sug'orilgan kompozitsiyalar, nozik istehzoli kayfiyat nafis chizgilarda mohirlik bilan tasvirlangan.



a



b

45-a, b rasmlar. Telman Muhamedov.
O'zbek xalq ertaklariga ishlangan ullyustratsiyalar.

Telman Muhamedovning ijodi misolida Sharq miniatyura san'ati namunalariga xos chiziqlar nafisligi, mazmundorligini o'zgacha talqinda ko'rishimiz mumkin (45-a, b rasmlar).

Anatoliy Andreyevich Bobrov (46-rasm) —1948- yilda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Rodionovka qishlog'ida tug'ilgan. 1972-yilda Toshkent Davlat teatr va rassomlik san'ati (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti) institutining sanoat grafikasi fakultetini tamomladi. Lekin hayotini kitobni badiiy bezash ishi bilan bog'ladi.

Kitob Anatoliy Bobrovning butun hayoti mazmuniga aylangan. U badiiy ibtidoning tasviriy in'ikos vositalarini mukammal o'zlashtirgan va kitobning bosmadan chiqishiga qadar bo'lgan butun nozikliklarini anglab yetgan rassom. Uning nomi nafaqat respublikamizdagi, balki undan tashqaridagi kitob san'atini qadrllovchilarga ham yaxshi tanish. A.Bobrov bezagan kitoblar respublika, respublikalararo va xalqaro konkursdarning diplomlari bilan taqdirlangan. Bezaklarning asl nusxalari O'zbekiston Davlat san'at muzeyida, O'zbekiston Badiiy akademiyasi ko'rgazmalar direksiyasining fondida saqlanmoqda.



46-rasm. Kitob bezovchi rassom Anatoliy Bobrov.

A. Bobrov M.R. Dayoning «Indoneziya ertaklari va afsonalari», qoraqalpog eposi «Shahriyor», hind qahramonlik eposi «Ramayana», Hamid Olimjonning «Semurg» sovg'a nashri, Asqad Muxtorning «Qo'l izi» she'rlar to'plami, Muhammad Alining «Boqiy dunyo» she'riy romanining o'zbekcha hamda ruscha nashri, A.S. Pushkinning «Baliqchi va oltin baliq haqida ertak» kitobi, Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» va «Qiyomat» asarlari, qirg'iz eposi «Manas» va boshqa ko'plab kitoblarni badiiy bezadi. Bobrov bezagan har bir kitob o'z qiyofasiga ega. Badiiy asosga chuqur kirishish umuman Bobrovga xos xususiyatdir.

Anatoliy Bobrov O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Qo'lingizdagi kitob qanday yaratilganligini hech o'ylab ko'rganmisiz? U kitob holida sizning qo'lingizga kelgunga qadar bir qator bosqichlarni o'tadi. Bu jarayonda unga turli kasb egalarining mashaqqatli mehnati singadi. Bular orasida rassomning ham hissasi bor.

Kitobning yuzaga kelishida uning muallifidan tashqari muharrir (muallif tomonidan bitilgan matnni tartibga soluvchi), badiiy muharrir (kitobning badiiy konstruktiv yechimini hal etuvchi), musahhih (xatolarni bartaraf etuvchi) va texnik muharrir ishtirok etadi. Ular bo'lajak kitobni to'la-to'kis bosmaxonada chop etish uchun hamkorlikda tayyorlab beradilar. Shuning uchun ham har bir kitobda uning muallifidan tashqari, muharrir, badiiy

muharrir, rassom, texnik muharrir, musahhihlarning nomlari, kitobni nashrga tayyorlagan nashriyot va uni chop etgan bosmaxonaning nomi yozib qo'yiladi. Siz o'zingiz o'qigan kitoblardan ularning nomlarini topib, har birining mehnatiga baho berishga harakat qilib ko'ring.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tarixiy kitoblar bilan zamonaviy kitoblar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
2. Sharq kitobat san'atining inqiroziga qanday omillar sabab bo'ldi?
3. Kitobat san'atining sharqona an'analarini qayta tiklagan rassom kim? Uning ijodining o'ziga xos tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. O'zbekiston kitob grafikasi san'ati vakillaridan kimlarni bilasiz?
5. Kitobning yaratilishida kimlar ishtirok etadi?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. Kitobat naqqoshi. T., Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. 1990.
2. Художник и книга. Т., Издательство Литературы и искусства им. Г.Гуляма. 1987.
3. Н. Зиганщина. Искусство книги в Узбекистане. Т., Издательство Литературы и искусства им. Г.Гуляма. 1978.

15- MAVZU

KITOB GRAFIKASI SAN'ATINING BADIY-GRAFIK ELEMENTLARI

Topshiriq. Adabiy asarga kitob grafikasining biror bir bezak elementini ishlash.

Material. Oq qog'oz, qalam, qora tush, pero, akvarel bo'yog'i, mo'yqalam.


Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Kitobning badiiy-grafik elementlari va ularning funksiyalarini tushuntirish.

2. *Amaliy qism.* Kitobning badiiy-grafik elementlaridan birini grafik usulda bajarish.

Kitob bezash san'ati ham tasviriy san'at sohasi, ham texnikaviy soha. Chunki, u tasviriy san'atning materiallari, ashyolari, qurollari va tasvir usullariga asoslanadi. Ikkinchi tomondan, kitob bezovchi rassom o'z asarini nashr etilayotgan kitobni bosmadan chiqarish texnologiyasidagi o'ziga xos shartlarga amal qilgan holda yaratadi. Kitobni yaratish jarayoni uning maketini tayyorlashdan boshlanadi. Unda kitobning umumiy tuzilishi, kompozitsiyasi, undagi elementlarning soni va xarakteri aks ettiriladi. Maket asosida kitobning badiiy elementlarining originali ishlanadi. Hozir kitobat san'atining asosiy badiiy-grafik elementlari bilan tanishib chiqamiz.

Kitob elementlari ichida eng qadimiylaridan biri, shubhasiz, muqovadir. Asarning asosiy g'oyasini ochib beruvchi, uning obrazi, yo'nalishini tasvirolovchi muqova asrlar davomida turli shakllarda tayyorlanib va ishlanib kelindi. Ular taxta, teri, qog'oz, plastmassa, metallardan tayyorlanishi

mumkin. Qadimda kitob muqovalari turli qimmatbaho matolar, toshlar, tilla bilan ham bezatilgan (47-rasm).




47-rasm. Qadimiy muqovalar.

Supermuqova ayrim kitoblardagina bo'ladi. U oddiy shriftli, badiiy bezakli, naqshinkor, foto bezakli bo'lishi mumkin. Uning asosiy vazifasi kitob haqida tasavvurga ega bo'lish uchun kerakli ma'lumot berish hamda kitob muqovasini himoya qilishdan iborat (48-rasm). Kitob haqidagi umumiy ma'lumotni muqovadagi shriftli va bezakli kompozitsiyalar ifodalaydi (49-rasm).

Kitobning ichki badiiy bezak elementlari forzats bilan boshlanadi. Forzats («vorsats» — nemischa, ikki sahifali qog'oz) kitob bloki bilan muqovaning ichki tomoniga yelimlanadigan qog'ozdan iborat. U tasvirsiz, oq, biror bir sidiq'a rangli, naqshinkor, sujetli va kitobning asosiy mazmunini anglatuvchi so'zlar joylashtirilgan bo'lishi mumkin. «Temur davrining me'moriy qahkashoni» nomli kitobning forzatsida qadimiy me'moriy obidalarga ishlangan naqshinkor mozaikaning berilishi kitobning mazmunini boyitishga xizmat qilgan. Qadimiy kitoblardan «Naqshbandiy xojalarining oliy nasabnomasi», Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho», shuningdek, Qur'oni Karimga ishlangan forzatslar har tomonlama mukammal san'at asari sirasiga kiradi.

Kitobning titul varag'i uning «nasabi»ni bildiradi. Zero, «titul» iborasi (lotincha «titulus») feodal va burjuaziya davrida yuqori mansabli kishilarga beriladigan unvon, nasabni anglatadi.

Kitobning titul varag'i ham kitob haqidagi to'liq ma'lumotni, asarning muallifi, nomi, qachon va qayerda nashr ettirilganligini bildiradi. Ayrim hollarda bu harfli kompozitsiya mo'jaz tasvir yoki naqshli bezak bilan ham




48-rasm. Supermuqova.

to'ldiriladi. Agar titul varag'idagi yozuvlar uning chap tomonidagi varag'iga ham joylashtirilsa, bu bet kontrtitul deb ataladi.

Titul varag'ining chap tomonida joylashtirilgan illyustratsiya kitobning mazmunini anglatuvchi tasvir (u asar qahramonining yoki muallifning portreti ham bo'lishi mumkin) *f r o n t i s p i s* (fransuzcha «frontispise» — ko'rmoq) deb ataladi.

Kitobning bobi, bo'limining boshlanishida beriladigan alohida bet *s h m u t s t i t u l* (nemischa «schmutztitel») deb ataladi. Unda bo'limning nomi, raqamidan tashqari, naqshinkor yoki sujetli bezaklar ham joylashishi mumkin.

Illyustratsiya (lotincha «illustratio» — aniqlashtirmoq, ravshanlashtirmoq) — rassomning kompozitsion mushohadasi, tasviriy mahoratini to'la namoyon etish uchun imkon yaratib beruvchi badiiy-grafik elementdir. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida turli janrdagi adabiy asarlarga illyustratsiya ishlashga ko'proq e'tibor qaratilgan. Kitobat san'ati tarixidan shu narsa ma'lumki, bir asarga bir nechta rassom turli yillarda qayta-qayta murojaat etib, har safar o'ziga xos yangilik kiritishi mumkin. M.Servantesning «Don Kixot» asariga illyustratsiyalar ishlagan Xose del Kostilo (1780), Gyustav Dore (1863), Onore Dome (1868), Xegenbart (1951), Kukriniksi (1953) va P.Pikasso (1955)lar asarning badiiy yechimini o'ziga xos uslubda hal etgan. Xuddi shunday holni G'.G'ulom asarlariga, o'zbek xalq ertaklariga Telman Muhamedov va Abdubiqi G'ulomovlar tomonidan ishlangan illyustratsiyalarda ham ko'rish mumkin (50-rasm). Shuningdek, Sharafiddin




49-rasm. M.Boboxonovning «Amir Temur va temuriylar davri madaniyati» nomli kitobi muqovasining eskizi. Rassom A.Sulaymonov.

Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Nizomiy, Dehlaviy, Navoiylarning «Xamsa»lariga, Firdavsiyning «Shohnoma»si va shu kabi qadimiy qo'lyozma asarlariga Sharq musavvirlari tomonidan ko'plab illyustratsiya-miniaturalar ishlangan (51-rasm). 52-a,b rasmlarda rassom A.Bobrovning badiiy illyustratsiyalarida qadimiy va zamonaviy badiiy-tasviriy an'analarni sintetik tatbiqini ko'rishimiz mumkin.

Kitobning badiiy-grafik elementlari ichida eng mas'uliyatlisi muqaddima tasvir (zastavka) va xotima tasvir (konsovka)dir. Chunki ular kitobning bir bobi, ayrim hollarda, umuman, kitobning boshlanishi va yakunlanishida uning mazmunini to'liq ochib berishi lozim. Bu elementlar sujetli, naqshinkor yoki aralash bo'lishi mumkin (53-a, b, d rasmlar).

Kitob grafikasining barcha badiiy-grafik elementlari bilan tanishib chiqdik. Endi o'rganilgan manbalarga taniqli rassomlar tomonidan ishlangan kitob




50-rasm. Abduboqi G'ulomov. O'zbek xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiya.


bezaklarining o'zingiz tasavvur etgan variantlarini ishlab ko'ring. Bu kitob bezagining istalgan bir elementi bo'lishi mumkin. Yodingizda tuting, kitobning badiiy elementini topishda eskizlar ishlash orqali izlanishning ahamiyati katta. Ular sizga mantiqiy to'g'ri, asarning mazmuniga mos, grafik jihatdan ishlashga qulay variantni topishga imkon beradi. Shuning uchun ham kitob bezovchi mashhur rassomlar bir illyustratsiya yoki zastavkaning kompozitsion yechimini topish uchun ko'plab eskizlar ishlaganlar. Siz ham eskizlar ishlab ko'ring. Ularning ayrimlarini rangda bajarang.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Kitob grafikasining badiiy-grafik elementlarini nomma-nom sanab chiqing. Ular qanday funktsiya bajaradi?
2. Qadimda kitobat san'atining badiiy bezaklari qanday tayyorlangan?
3. Bir asarga turli davrlarda bir necha rassomlar tomonidan illyustratsiyalar ishlangan badiiy adabiyotlardan qaysilarini bilasiz? Ularni bezagan rassomlarning asarlarining o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?



51-rasm. Kamoliddin Behzod. Nizomiyning «Xamsa» asariga ishlangan miniatyura.



a



b

52-rasm. Anatoliy Bobrov. a) O'zbek xalq ertagiga ishlangan illyustratsiya.
b) Hind xalq eposi «Ramayana» ga ishlangan illyustratsiya.



a



b



d

53-rasm. Zastavkalar:
a) shriftli; b) sujetli; d) naqshinkor.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar

1. S.M.Krukovskaya. Iskandar Ikromov. T., O'zdnashr. 1955.
2. Художественное конструирование и оформление книги. Под. общ. ред. А.Д.Гончарова. М., Книга. 1971.
3. А.Сулейманов. Кружок искусства книжной графики в школе. Т., УЗПФИТИ, 1990.
4. Н.П.Дьяченко. Рождение книги. Книга для учащихся в старших классах средней школы. М., Книга. 1990.
5. Я.Чехолд. Облик книги. М., Искусство. 1984.

16 - MAVZU

KITOB ILLYUSTRATSIYASI

Topshiriq. Adabiy asar yoki multfilm mavzusi bo'yicha illyustratsiya ishlash.

Material. Oq qog'oz, qalam, flomaster, rangli qalamlar, akvarel bo'yog'i, mo'yqalamlar.

Darsning mazmuni. Illyustratsiyalarni to'g'ri idrok etish va talqin qilish; turli texnikada (qalamda, rangli qalamlarda, akvarel bo'yog'ida) illyustratsiya ishlash.

Kitob illyustratsiyasi san'ati tarixini o'rganish Vatanimiz, uning madaniyati tarixini o'rganish demakdir. Kitob grafikasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar bu san'at turining tasviriy san'atning boshqa turlari bilan mushtarakligi va tafovutlari, uning tasviriy usullari va vositalarini o'zlashtirish imkonini beradi. Quyi sinflarda siz o'zbek xalq ertaklari, H.Olimjon, A.Pushkin kabi adiblarning asarlariga illyustratsiyalar ishlagansiz. O'zbek xalq ertaklaridan «Zumrad va Qimmat», «Farrux va Zumrad» ertaklariga, «Alpomish» eposiga, «Semurg'» dostoniga, «Afandi latifalari»ga illyustratsiyalar ishlangan, shu jumladan, jahonga mashhur O.Disney kompaniyasining bir qator multfilmlarining kadrlari ham ajoyib illyustratsiya namunalari vazifasini o'tashi mumkin. Ular orasida «Qirol sher», «Sohibjamol va maxluq» multfilmlari katta-yu kichik tomoshabinlar tomonidan sevib tomosha qilinadi. Ushbu multfilmlar o'zining mazmuni, personajlarining juda chiroyli qilib ishlanganligi bilan sizlarning ham mehringizni qozongan bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ularning sujetlari asosida mustaqil kompozitsiya bajarish mashqlari ham zavqli kechadi. Bu ham o'z mohiyatiga ko'ra kitob grafikasiga o'xshab ketadi, ya'ni, sujet asosida illyustratsiya ishlanadi.

Avval ertakning mazmunini xotirangizda tiklab oling. Shunda siz barcha ertaklarda bo'lganidek, unda yovuzlik bilan yaxshilik o'rtasidagi to'qnashuvlar borligini, bu to'qnashuvda yaxshilik g'olib chiqishini eslaysiz. Endi asarning personajlarini eslab ko'ring.

Sohibjamol va uning yoshi ancha o'tib qolgan ixtirochi otasi Moris. O'ziga haddan ziyod bino qo'ygan yigit Gaston. Uning atrofidagi yugurdaklari, poraxo'r sudya.

Boshqa bir qasrda o'zining nojo'ya harakati bilan yordamga muhtoj bo'lgan kimsaga yordam berishni istamaganligi uchun sehlrlangan personajlar. Bu yerda hamma narsa jonli va ularning barchasi – choynak, chashka, likopchalar, samovar, oyna va boshqa buyumlar gapiradi, o'zining qiyofasiga ega. Ularning hukmdori bahaybat maxluq hamma narsadan umidini uzgan. Chunki uni saroydagilarni o'z holiga keltirish uchun kimdir sevib qolishi lozim. Shunday dahshatli maxluqni kim ham sevar edi. Biroq dunyoda mehr, muhabbat degan kuch bor va u hamma narsaga qodir. Asarning eng qiziq joyi Gaston bilan maxluqning olishuvi bo'lsa kerak. Asar mazmunini xotirangizda tiklab, bunga amin bo'lasiz. Yana bir narsaga ishonch hosil qilasiz, ya'ni birovning mehrini qozonish uchun o'sha odamga mehr-muruvvat ko'rsatish lozim. Agar sohibjamolga shunday mehr-muruvvat ko'rsatmaganda u maxluqqa mehr qo'ymagan bo'lar edi.

Siz multfilm mazmunini xotirangizda tiklab oldingiz. Endi undagi ko'rinishlar, personajlarning qiyofalarini eslang. Gaston baland bo'yli, ko'krak va bilak mushaklari baquvvat yigit. Lekin u bu kuchlarni yaxshilik yo'liga ishlatmaydi. Shuning uchun ham u mag'lub bo'ladi. Sohibjamolning otasi ixtirochi. Bu uning tashqi ko'rinishida ham ifodalangan. Qoshlari o'siq, tepakal, mo'ylov va sochlari oqargan.

Asarning bosh qahramonlari, shubhasiz, maxluq va sohibjamol qiz Belldir. Sohibjamol bilim olishga chanqoq, u bo'sh paytida kitob o'qiydi. Kiyimlari bejirim va o'ziga yarashgan. Maxluqning tashqi ko'rinishi uning aksi. U ham juda baquvvat. Lekin yuz tuzilishi, oyoq-qo'llari hayvonsifat va qo'rqinchli. Shohona kiyimi, dang'illama qasrda yashashi uning sehlrlanguncha kim bo'lganligi haqida o'ylashga majbur etadi. Uning xatti-harakatlarida muruvvatli, yaxshi odamning xislatlari sezilib turadi. Uning sohibjamolga juda katta kutubxona sovg'a qilganligi ham shundan dalolat beradi. Boshqa buyumlarning ko'rinishlari ham, faoliyatlari ham yoqimli. Ular sohibjamol va maxluqni bir-birlariga mehr qo'yishlari uchun harakat qiladilar. Demak, yaxshi niyat yo'lida qilingan xayrli ish, albatta, ijobiy natija bilan tugaydi. Yana bir xulosa: birovga sovg'a berishda uning didiga, ichki dunyosiga mos buyum sovg'a qilish kerak. Shuningdek, sabrli, irodali bo'lish ham insonni yaxshilikka yetaklaydi.

Multfilmdagi asosiy personajlar va voqealar bilan tanishib olgach, o'zimizga ma'qul bo'lgan kompozitsiya ishlaymiz. Uning uchun avval qalamda bir necha eskiz bajarib olamiz. Ular asosida yaxlit kompozitsiya tuzib, uni akvarel bo'yog'ida ishlaymiz. Ayrimlar rangli qalam va flomasterda ham ishlashi mumkin. Qahramonlarning kiyimlarini bo'yaganda maxluqning kiyimlarini to'q ranglarga, sohibjamolnikini nafis, och ranglarga bo'yagan ma'qul. Bu yondashuv obrazlar dunyosiga mos keladi. Yaxshi chiqqan ishlar yaqin kishilaringiz, ukangiz yoki singlingizga sovg'a bo'lishi mumkin.

KITOB MAKETI

Topshiriq. Chorak davomida bajarilgan kitob grafikasiga oid elementlardan maket yasash.

Material. Qog'oz, qalam, chizg'ich, karton, mato, yelim, qaychi, pichoq, bigiz, ip, akvarel va guash bo'yoqlari, mo'yqalamlar.


Darsning mazmuni. Kitob elementlaridan uning maketini yasash.

Kitobning badiiy-grafik elementlari haqida to'liq ma'lumot olgach, o'zingizga ma'qul bo'lgan biror bir asarga maket ishlab ko'ring. Bu asar she'riy to'plam, kichik hikoya, ertak yoki qadimiy rivoyat, afsona, multfilm bo'lishi mumkin. Ularni bajarib bo'lgach, jamlab kitob holiga keltirasiz. Shu tariqa o'zingiz yaratgan kitobga ega bo'lishingiz mumkin. Bu ishlarni bajarib bo'lgach, kitobning yaratilishi naqadar mashaqqatli, murakkab ish ekanligini teranroq anglaysiz.

Ba'zi kitoblar ko'p yoki noto'g'ri ishlatilganligi bois buzilib ketadi. Avvalo ularning muqovasi yirtiladi. Muqovasi yirtiq kitobni esa varaqlari tezda buklanib ketadi. Shunday kitoblarni 54-rasmda ko'rsatilganday muqova yasab ta'mirlab qo'ysangiz, uning umrini yanada uzaytirgan bo'lasiz va bu kitob ukalaringiz va singillaringizga ham uzoq yillar xizmat qilishi mumkin.

Xuddi shunday ishni jurnallar bilan ham bajarish mumkin. Ularning muqovalari ham yupqa bo'lganligi uchun uzoq yillar foydalanishga yaroqsiz. Shuning uchun ularning hajmiga qarab, bir yilligini 1 yoki 2 ta jild bilan muqovalab qo'yilsa, uzoq yillar turaveradi.

Demak, eski kitobni ham, jurnallarni ham bir xil usulda muqovalash mumkin. Uning uchun kitob (jurnal) o'lchamidagi ikki bukilgan qog'ozni buklangan holda pastidan 20 – 30 mm qismiga yelim surtib, unga shu o'lchamda mato yopishtirib chiqamiz. Mato ham yelimlanib blokka yopishtiriladi. Matoning bir qismi blokka yopishtirilgan bo'lsa, ikkinchi qismi muqovaga forzatsni birinchi (chap) varag'iga yopishtirish uchun qoldiriladi. So'ng uning 4 joyidan bir xil masofada teshib ip bilan mahkam tortib blokni birlashtirasiz. Lekin kitobning matn qismini qo'shib tikib yubormaslik lozim. Endi mana shu blok o'lchamidan kattaroq o'lchamda karton muqova tayyorlaysiz. Bu karton kitobning blokidan 3 – 4 mm kattaroq bo'lishi lozim. Shundagina ular blokni yaxshi himoyalaydi. Demak, muqova uchun tayyorlangan karton pastki butun qismi, qalinligi, qalinligidan blok tikilgan joyigacha va 1,2 mm oraliq qoldirilgan ustki qismidan iborat bo'ladi. Ularni shu tartibda har tomonidan buklab yopishtirish uchun yetarli bo'lgan matoga yoki chidamli qog'ozga yopishtirib chiqamiz. Matoning to'rttala burchaklari 45 qiyalikda qirqib tashlanadi va buklab kartonning orqa tomoniga yopishtiriladi. Tayyor bo'lgan muqovani blokka kiygizib, avval forzatsning chap tomoni



54-rasm. Kitob tayyorlash jarayoni.

uchun qoldirilgan matoni, so'ng forzatsni yopishtirib 1 – 2 soatga bostirib qo'yamiz. Tayyor bo'lgan muqovani kitobning mazmuniga mos tarzda bezak, yozuv bilan bezatishimiz ham mumkin. Bunday kitob uzoq yillar o'zining sifatini saqlab qoladi. Shuningdek, muqovalangan jurnallar ham ishonchli himoyalangan bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham yirik kutubxonalarda kitoblar vaqti-vaqti bilan ta'mirlab turiladi, jurnallar ham bir necha soni birlashtirilgan holda qalin muqovada saqlanadi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Maket nima, u nima uchun tayyorlanadi?
2. Kitob uzoq vaqt yaxshi saqlanishi uchun nima qilish kerak?
3. Muqovalarning qanday turlari mavjud?

ILOVALAR

Aziz o'quvchi! Quyidagi so'zlarning mazmuni va mohiyatini eslab qoling. Ularni tasviriy san'at haqidagi suhbatlarda qo'llashga harakat qiling.

- A n s a m b l** (*fr.*) — bir butunlikni, kompozitsion yaxlitlikni tashkil etuvchi tarkibiy mutanosiblik. Tasviriy san'at, musiqa, me'morchilikda ko'proq qo'llaniladi. Misol uchun, Samarqandagi Registon ansambli.
- V e l y u r** (*fr.*) — zardo'zlikda qo'llaniladigan baxmalsimon qalin mato.
- G e r a l d i k a** (*lot.*) — gerbshunoslik, gerblar va tarixning o'ziga xos jihatlarini o'rganuvchi soha. Tasviriy san'atda gerblarni tasvirlash.
- G i r i x** (*fr.*) — kompozitsiyasi geometrik shakllardan hosil qilingan naqsh turi.
- G r a f i k a** (*yunon.*) — tasviriy san'at turi. Uning litografiya, gravyura, ofort, plakat, dastgoh, kitob, ishlab chiqarish grafikasi kabi turlari mavjud.
- D i z a y n** (*ing.*) — turli buyum, binolar interyeri, kiyim-bosh, texnik vositalarni badiiy loyihalashtirish.
- I b o d a t x o n a** — diniy ibodat o'tkaziladigan binolarning umumiy nomi, har bir dinda ibodatxonaning o'z nomi bor: xristianlikda — sobor, cherkov, kostel, kirxa; islomda — masjid; iudaizm-da — sinagoga deyiladi. Buddizmga e'tiqod qiladigan mamlakatlarda ibodatxona turlicha ataladi. Yaponiyada — tora, Shrilankada — vixara, Mo'g'ulistonda — xure, Buryatiyada — datsan va h.k. Har qaysi dinda qavmlarning xudo bilan muloqot qiladigan joyi sifatida ibodatxona ko'p ma'noni anglatadi. Masalan, xristianlikda va buddizmda ibodatxona dunyo tomonlarini aks ettiruvchi koinotning modelini eslatadi. Uning me'morchilik, naqsh va tasviriy bezaklari muayyan dinning qonun-qoidalariga qat'iy bo'ysundiriladi. Har qanday mamlakatning ibodatxona me'morligi qat'iy qoidalardan qat'i nazar, o'z milliy qiyofasiga ega va arxitektura durdonalari sifatida jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan hissa hamdir.
- I l l y u s t r a - t s i y a** (*yunon.*) — biror bir matn yoki biror hodisani tushuntirish, to'ldirish uchun ishlangan tasvir.
- I m p r e s s i o - n i z m** (*yunon.*) — XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida Yevropa, xususan, Fransiya rangtasvirida yuzaga kelgan badiiy oqim. Uning vakillari toza ranglar surtmasi bilan o'z taassurotlarini tasvirlaganlar. Impressionizm haykaltaroshlik, musiqa, teatr va me'morchilikda ham qo'llanilgan.
- K a r v o n s a r o y** — Yaqin Sharq, O'rta Osiyo va Kavkazorti kabi shaharsavdo yo'llarida qurilgan to'xtash, hordiq chiqarish uchun mo'ljallangan hovli-joy. Karvonsaroylar qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa, IX–XVIII asrlarda

shaharlarning rivojlanishi, davlatlar orasida savdo-sotiqning jamlanishi bilan keng yoyilgan. Ko'p hollarda karvonsaroylar ichki hovlilari va atrofi bir-ikki, ba'zida uch qavatli binolardan iborat bo'lgan. Pastki qismi otulovlar turadigan joy va omborxona vazifasini o'tagan. Yuqori qavatda esa hordiq chiqarish xonalari bo'lgan. Karvonsaroy rabot yoki xonaqohlarga birlashtirilgan holda o'ziga xos me'morlik ansamblini tashkil etadi.

Karvonsaroylar ham jamoat yig'iladigan joylarda bo'lganligi uchun me'morlik jihatidan yaxshi ishlangan, turli bezaklar berilgan, bozor, tim, do'konlar qatorida karvonsaroy ham birlashib, o'ziga xos me'morlik ansamblari tashkil etilgan.

- K v a d r a t** (*lot., arab.*) – tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak. Bu o'lcham tasviriy san'atda kam qo'llaniladi. Undan ko'proq naqqoshlikda foydalaniladi.
- K u b i z m** (*fr.*) – XX asr boshlari rangtasvirida yuzaga kelgan badiiy oqim. Unda rassomlar buyumlarning tuzilishini oddiy geometrik shakllarga ajratib tasvirlashga intilganlar.
- M a k e t** (*fr.*) – bo'lajak buyumning (binoning, kitobning) kichik o'lchamda ishlangan dastlabki namunasi.
- M a q b a r a** (*arab.*) – qabr ustiga qurilgan memorial bino-mavzoley. Musulmon dinida dastlab qabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat qurish umuman man etilgan. Lekin IX asrdan boshlab maqbara qurish odatga kira boshladi. Keyingi asrlarda, asosan, podshohlar, ulug' ruhoniylar qabri ustiga hashamatli maqbaralar qurildi. Buxorodagi Somoniylar, Marvdagi Sulton Sanjar, Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi va Shohizinda ansamblari ana shunday mavzoleylarning ajoyib namunalariandir.
- M i n b a r** (*arab.*) – rasmiy muassasalarda ma'ruzachi ma'ruza o'qiydigan maxsus qurilma, moslama. Musulmon masjidlarida imom va'z aytadigan baland joy. Har ikkisi ham bino interyerining estetik ko'rinishiga e'tibor berilgan holda quriladi.
- M i n o r a** (*arab.*) – Sharq me'morchiligida keng qo'llanilgan baland inshoot. Misol uchun, Buxorodagi Minorai Kalon, Xivadagi Kalta minor.
- M u h a r r i r** (*arab.*) – matnni tahrir qiluvchi, badiiy muharrir, kitobning badiiy-estetik yechimini hal etuvchi.
- P a l i t r a** (*fr.*) – rassomlarning rang qorishtirish uchun ishlatadigan buyumi, yassi yuzali taxtacha. Unda toza ranglar joylashgan bo'ladi. Rassom rasm chizish vaqtida shu ranglardan mo'y-qalamda oz-ozdan olib, bir-biriga qorishtiradi va o'ziga kerak rang tusini tayyorlab oladi hamda kerak joyga ish-latadi. Rassom ishlatadigan ranglar tizimi ham palitra iborasi bilan aytiladi. Masalan, rassom palitrasi boy.

- P e s h t o q** (*fors.*) – binoning old qismi. Odatda u serhasham qilib bezatilgan bo'ladi. Misol uchun Samarqanddagi Sherdor madrasasi-ni-
ning peshtoqi.
- P e r s p e k t i v a** (*fr.*) – insonni ko'rish idrokiga binoan buyumlarni kartina tekis-
ligida tasvirlash usuli.
- P o s t i m p r e s - s i o n i z m** (*lot.*) – XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan rangtasvir
oqimi. Uning vakillari borliqning umumlashgan obrazini
toza ranglarda tasvirlashga intilganlar.
- P u a n t i l i z m** (*fr.*) – XIX asr oxirida yuzaga kelgan oqim. Unda rassomlar
toza ranglarni dog'lar shaklida surtib kartina yarat-
ganlar.
- R a b o t** (*arab.*) – qadimiy me'morchilikda keng qo'llanilgan me'moriy
inshoot, qo'rg'on, ularda soqchilar turadigan joy. Qadimiy
tasviriy manbalarda rabotlarning turli ko'rinishlarini
uchratish mumkin.
- R e a l i z m** (*lot.*) – san'atdagi oqim, ijodiy yo'nalish. Tasviriy san'atda bor-
liqni obyektiv (haqqoniy) tasvirlash.
- S i n t e z** (*yunon.*) – san'atda uning bir necha turlari, usullarini birlashtirgan
holda qo'llash.
- S t i l i z a t s i y a** (*lot.*) – tabiiy shakllarni soddalashtirish, badiiylashtirish.
- S u l s y o z u v i** – arab yozuvida mavjud bo'lgan yetti yozuv turining biri.
Qadimiy sharqona binolarning peshtoqlariga, minora va
devorlariga Qur'ondan parchalar, Hadislar yozishda
qo'llanilgan.
- S y u r r e a l i z m** (*fr.*) – XX asr avangard san'atidagi yo'nalish. Real va noreal
tasvirlardan iborat hodisa.
- T o t e m** (*ing.*) – hayvon, o'simlik, buyum yoki tabiat hodisalarini
ifodalovchi tasvir. Misol uchun; qadimiy qabilalarning
hayvon tasviridan iborat gerbi.
- U f q c h i z i g' i** – kartina tekisligining osmon va yer qismini ajratib
turuvchi gorizontaal chiziq.
- X o n a q o h** (*fors.*) – masjidning ko'pchilik bo'lib namoz o'qishga mo'ljallab
qurilgan katta xonasi. Xonaqoh qishloq masjidleri,
karvonsaroylarda ham bo'ladi. Eshonning so'filar bilan
zikir tushadigan xonasi ham xonaqoh deyiladi.
- F o v i z m** (*fr.*) – XX asr boshlarida «yovvoyilar» deb nom olgan primitiv
san'at oqimi. Uning vakillari realistik usullarni inkor
etgan holda voqelikni sodda, biroz sun'iy va dekorativ
tarzda tasvirlashga intilganlar.
- F r a g m e n t** (*fr.*) – parcha, asarning bir qismi.
- E k s p o z i t s i y a** (*lot.*) – muzey, ko'rgazma zallariga qo'yilgan osori atiq, buyum,
kartina.
- E m b l e m a** (*yunon.*) – biror bir g'oya, harakat, jamiyat, tashkilot, korxona va
h.k. larning shartli tasviri.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
-----------------	---

BIRINCHI CHORAK

1-mavzu. Sanʼatda oqim va yoʻnalishlar	4
2-mavzu. Impressionistik rangtasvir	9
3-mavzu. Kubizm uslubida natyurmort ishlash	11
4-mavzu. Tasviriyy sanʼatda ramziy belgi va geraldika	13
5-mavzu. Oʻzbekistonning amaliy bezak sanʼatida ramziy shakllar	18

IKKINCHI CHORAK

6-mavzu. Oʻzbekiston naqsh ramzlari	25
7-mavzu. Amaliy bezak sanʼatining obrazli tizimi	27
8-mavzu. Amaliy bezak sanʼatida shakl va mazmun	34
9-mavzu. Dizayn sanʼati	40

UCHINCHI CHORAK

10-mavzu. Oʻzbekistonning meʼmoriy yodgorliklari	43
11-mavzu. Sharq meʼmurligi	48
12-mavzu. Men istagan shahar	50
13-mavzu. Meʼmoriy manzara	53

TOʻRTINCHI CHORAK

14-mavzu. Kitobat sanʼati	57
15-mavzu. Kitob grafikasi sanʼatining badiiy-grafik elementlari	64
16-mavzu. Kitob illyustratsiyasi	71
17-mavzu. Kitob maketi	73
Ilovalar	75

Asqarali Sulaymonov, Ne'mat Abdullayev

TASVIRIY SAN'AT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf
o'quvchilari uchun darslik

2-nashri

Muharrirlar: *H.Mahmudova, M.Yo'ldosheva*

Musavvirlar: *A.Sulaymonov, Z.Sulaymonova*

Badiiy muharrir *A.Bobrov*

Texnik muharrir *T.Smironova*

Kichik muharrir *N.Fozilova*

Musahhih *F.Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchi *A.Sulaymonov*

IB № 4521

Bosishga 28.03.2007-y. da ruxsat etildi. Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$.

Tayms garnitura. Ofset bosma. 6,45 shartli bosma toboq.

7,2 nashr bosma tobog'i. Jami 72574 nusxa. 4-2007 raqamli shartnoma.

103 raqamli buyurtma.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi hisobidan maktab kutubxonasi
uchun chop etildi. Bepul.**

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30
100128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.

Sulaymonov A., Abdullayev N. Tasviriy san'at: Umumiy o'rta ta'lim maktab. 7- sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. 80 b.

I. Muallifdosh

Mazkur darslik o'quvchilarga tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikdan davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturi talablari asosida nazariy bilim berish va ularda amaliy malakalarni shakllantirishga mo'ljallangan.

Darslikda tasviriy san'at tarixida muhim o'rin tutgan umuminsoniy badiiy qadriyatlar o'zbek milliy san'atining qadriyatlari, an'analari bilan umumlashtirib berilgan. Bu hol o'quvchilarda keng badiiy tafakkurni tarbiyalashga zamin yaratadi.